



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object identifier

eoconf.com - from 2024

INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2026, Issue 1.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



OILADAGI MA'NAVIY MUHIT VA UNING BOLA PSIXOLOGIK TARBIYASIGA TA'SIRI.

Jo'rakulova Dildora Ziyodullayevna

Psixologiya o'qituvchisi, dotsent, Phd:

Ismoilov Turg'un Tarix fakulteti talabasi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi ma'naviy muhitning bola psixologik rivojlanishiga ta'siri ilmiy-nazariy asoslar bilan yoritilgan. Maqolada oilaviy qadriyatlar, kommunikativ jismlar va tarbiyaviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, bola psixologik tarbiyasida ma'naviy uyg'unlikning rolga doir muhim omillar ochib berildi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, psixologik tarbiya, oila muhiti, qadriyatlar, bola rivoji, ijtimoiylashuv, kommunikatsiya, tarbiyaviy omillar.

Abstract: This article highlights the impact of the spiritual environment in the family on a child's psychological development, based on scientific and theoretical foundations. The article analyzes the interconnection between family values, communicative elements, and educational processes. Additionally, it identifies key factors regarding the role of spiritual harmony in a child's psychological upbringing.

Keywords: spirituality, psychological upbringing, family environment, values, child development, socialization, communication, educational factors.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически освещено влияние духовной атмосферы в семье на психологическое развитие ребенка. В статье проанализированы взаимосвязь семейных ценностей, коммуникативных элементов и воспитательных процессов. Также раскрыты важные факторы, влияющие на роль духовной гармонии в психологическом воспитании ребенка.

Ключевые слова: духовность, психологическое воспитание, семейная среда, ценности, развитие ребенка, социализация, коммуникация, воспитательные факторы.

Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo'g'ini bo'lishi bilan birga, shaxs kamolotining boshlang'ich poydevorini tashkil etadi. Ayniqsa, oiladagi ma'naviy muhit bola psixik rivojlanishi, xarakter shakllanishi va ijtimoiy tajriba orttirishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oilaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ta'kidlab, quyidagilarni qayd etadi: "Oila – bu jamiyatning tayanchi, eng katta maktabi va tarbiya maskani. Farzandlarimizning ma'naviyati, dunyoqarashi, odobi avvalo oilada shakllanadi. Mustahkam oila – mustahkam jamiyatning asosidir."

Bu fikrlar oila ichidagi ma'naviy muhit va bola psixologik tarbiyasi qanchalik bevosita bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Prezident oilani faqat

turmush tarzining markazi emas, balki inson ruhiyati, axloqi va ma'naviyati shakllanadigan birlamchi makon sifatida ko'radi. Shuning uchun davlat siyosatida ham oilani qo'llab-quvvatlash, sog'lom psixologik iqlim yaratish, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Prezidentning ta'kidlashicha, farzandlar tarbiyasiga e'tibor kuchaysa, kelajak avlodning intellektual, ruhiy va ma'naviy salohiyati ham yanada yuksaladi. Zero, "Oila mustahkam bo'lsa, jamiyatda ham barqarorlik va taraqqiyot bo'ladi."

Olimlarning fikricha, ma'naviy muhitning barqarorligi bolaning emotsional holati va ruhiy muvozanatini saqlashda muhim omildir.

Oila ma'naviy muhiti — bu oilaning qadriyatlari, axloqiy mezonlari, odob-axloq normalari, an'analari va oilaviy o'zaro munosabatlar tizimidan iborat murakkab psixologik-ijtimoiy muhitdir. Mazkur muhit bola ongini shakllantirish, unga ijobiy xulq me'yorlarini singdirish jarayonida asosiy o'rin tutadi. Shu boisdan, oilada mehr, hurmat va o'zaro ishonchning qaror topganligi bolaning psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir etadi.

Oila ichidagi muloqot madaniyati ham muhim komponent hisoblanadi. Ota-ona va farzand o'rtasidagi sog'lom kommunikatsiya tizimi bolani o'zini erkin ifoda etishga, mustaqil fikrlashga va o'z imkoniyatlarini namoyon qilishga undaydi. Ma'naviy boy muhitda voyaga yetayotgan bolalarda empatiya, ijobiy motivatsiya, tashabbuskorlik va mas'uliyat tuyg'usi tez shakllanadi.

Bola psixologik tarbiyasi — bu uning emotsional-intellektual rivojlanishi, xulq-atvor xususiyatlari va shaxs sifatida kamol topishiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy jarayonlar majmuidir. Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalik davri — shaxsiy fazilatlarining mustahkamlanishi uchun eng muhim bosqich bo'lib, bunda oilaning bevosita ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oilaviy muhitning iliqligi, ota-onaning e'tiborli munosabati, bolaga nisbatan qo'llab-quvvatlovchi psixologik yondashuv uning ruhiy o'sishiga ko'maklashadi. Aksincha, ziddiyatli oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda xavotirlik, qo'rquv, tajovuzkorlik yoki o'ziga ishonchsizlik kabi salbiy psixologik holatlar shakllanishi mumkin.

Bola tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi eng kuchli tarbiyaviy omil hisoblanadi. Ota-onaning axloqiy qiyofasi, kundalik xatti-harakati, muomala madaniyati bolaning idrokiga chuqur singadi va ularning shaxsiy xulq-atvor standartiga aylanadi.

Oila ma'naviyati bilan bola psixologik tarbiyasi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining rivojlanishini taqozo etadi. Ma'naviyati yuqori bo'lgan oilalarda psixologik tarbiya samaradorligi ham yuqori bo'ladi. Chunki bu kabi oilalarda bolaga nisbatan mehribonlik, adolat, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlar namuna sifatida doimiy ko'rsatilib boriladi.

Bola ma'naviy rivoji uchun muhitning axloqiy sog'lomligi, oila a'zolarining o'zaro hurmati, psixologik qo'llab-quvvatlovchi muloqot, bir-biriga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishi asosiy mezon hisoblanadi.

Oila ma'naviy muhiti bola psixologik tarbiyasining eng muhim omillaridan biri bo'lib, uning ruhiy barqarorligi, ijtimoiylashuvi, shaxs sifatida kamol topishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oilada ijobiy ma'naviy muhitning yaratilishi farzandlarning emotsional intellektini o'stirish, xulq-atvorini to'g'ri shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ota-ona va bola o'rtasidagi sog'lom kommunikatsiya, tarbiyaning izchilligi va o'zaro hurmat muhitida voyaga yetgan farzandlar keyinchalik jamiyatning faol va ma'naviy barkamol a'zolari bo'lib yetishadi. Shu bois, oilaning ma'naviy muhiti va psixologik tarbiya uyg'unligini ta'minlash har bir ota-onaning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Ma'naviy muhitning sog'lomligi nafaqat bola ruhiy rivojini ta'minlaydi, balki uning kelajakdagi jamiyatdagi o'rnini, kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatlarini ham belgilaydi. Oila ichidagi uyg'unlik qanchalik kuchli bo'lsa, bola tarbiyasi shunchalik samarali bo'ladi.

Shu asosda aytish mumkinki, oilaviy ma'naviyatni mustahkamlash va psixologik tarbiya jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish — har bir ota-onaning, har bir pedagogning, eng muhimi jamiyatning umumiy vazifasidir. Sog'lom ma'naviy muhitda voyaga yetgan farzandlar esa kelajakning ma'rifatli, ongli va barkamol avlodini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent, 2021.
2. Rahmonov N. Oila ma'naviyati asoslari. – Toshkent, 2021.
3. Yo'ldoshev J. Bola psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Zokirova R. Oila pedagogikasi. – Toshkent, 2020.
5. Vygotskiy L.S. Psixik rivojlanish nazariyalari.
6. G'afforova T. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2022.
7. Ergashev Q. Shaxs rivoji psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
8. Bronfenbrenner U. Ekologik rivojlanish modeli.
9. Abdullayeva G. Bola tarbiyasida oilaning o'rne. – Buxoro, 2020.

The Gothic Novel: Origins and Influence on English Literature

Isroilova Tursuntosh

Chirchiq Davlat Pedagogika Unibersiteti,
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

Kamilberdiyeva Barnoxon Xusniddin qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talaba

Annotation. This article explores the origins and development of the Gothic novel and its influence on English literature. Emerging in the late eighteenth century, the Gothic novel combined medieval settings, supernatural elements, and emotional intensity to challenge Enlightenment rationality. Beginning with Horace Walpole's *The Castle of Otranto*, the genre quickly expanded through the works of Ann Radcliffe, Matthew Lewis, and others. Gothic conventions later shaped Romantic and Victorian literature, influencing major works such as *Frankenstein*, *Jane Eyre*, and *Dracula*. The article concludes that the Gothic tradition remains a vital force in modern fiction, cinema, and popular culture.

Key words: Gothic novel, Supernatural, Medieval setting, Mystery, Horror, Atmosphere, Romanticism, Victorian literature, Sublime, Fear

The Gothic novel is one of the most distinctive and influential literary genres in English literature. Emerging in the second half of the eighteenth century, it introduced a unique blend of terror, mystery, emotional intensity, and supernatural elements. At a time when Enlightenment rationalism dominated intellectual life, Gothic fiction offered an alternative space where imagination, fear, and the unknown could flourish. The genre not only shaped the literary trends of its era but also laid the foundations for later developments in Romanticism, Victorian fiction, psychological literature, and modern horror.

The term "Gothic" originally referred to medieval architecture—particularly old castles, monasteries, and cathedrals with pointed arches and dark, dramatic interiors. Eighteenth-century writers adopted this term because their stories often took place in such ancient, mysterious environments. At the same time, readers were becoming increasingly interested in emotional experiences, supernatural events, and the darker aspects of human psychology.

The birth of the Gothic novel is usually associated with Horace Walpole's *The Castle of Otranto* (1764). Walpole combined medieval settings with supernatural happenings—giant helmets falling from the sky, ghostly apparitions, and ancient prophecies. This novel introduced most of the features that would later become essential to the Gothic mode, such as the tyrannical villain, the persecuted heroine, secret passages, and a gloomy, isolated castle.

After Walpole, the genre expanded rapidly. Ann Radcliffe played a major role in shaping the psychological and atmospheric aspects of the Gothic novel. Her works, especially *The Mysteries of Udolpho*, focused on building suspense through sublime landscapes, dark corridors, and unexplained noises. Radcliffe often offered

rational explanations for supernatural events, creating a balance between fear and reason.

Matthew Lewis, in contrast, embraced shocking and openly supernatural elements in *The Monk*. His novel introduced themes of forbidden desire, moral corruption, madness, and ghostly interventions. Consequently, the Gothic genre split into two branches: the “terror Gothic” represented by Radcliffe, and the “horror Gothic” represented by Lewis.

Writers like William Beckford further enriched the genre by exploring exotic and Oriental settings, demonstrating the Gothic novel’s adaptability. Gothic literature is recognizable by several defining features. These include isolated and ancient settings such as ruined castles, dark forests, or abandoned monasteries; a heavy and suspenseful atmosphere filled with stormy nights, shadows, and eerie silence; supernatural or mysterious events such as ghosts, curses, visions, and unexplained movements; and a cast of characters that often includes cruel villains, innocent heroines, mysterious strangers, wandering spirits, and psychologically tormented figures.

The themes of the Gothic novel revolve around fear of the unknown, conflict between rationality and emotion, the complexity of human guilt and sin, the fragility of sanity, and the blurred line between reality and imagination. Many Gothic writers used their stories to explore social and moral issues indirectly, using supernatural motifs as symbolic representations of deeper human anxieties. The Gothic novel had a profound influence on Romantic writers. Romanticism valued emotion, imagination, and the power of nature, all of which aligned with Gothic themes. Poets such as Coleridge and Byron incorporated Gothic imagery—haunted landscapes, supernatural beings, dark passions—into their works. During the nineteenth century, Gothic elements blended with social realism, contributing to some of the most significant novels of the period. Mary Shelley’s *Frankenstein* explored scientific ambition and the moral consequences of creation, blending Gothic horror with early science fiction. Emily Brontë’s *Wuthering Heights* used wild landscapes and intense emotional conflict to create a Gothic atmosphere of obsession and revenge. Charlotte Brontë’s *Jane Eyre* also contained Gothic components: the mysterious Thornfield Hall, strange noises at night, and the secret presence of Bertha Mason.

The Gothic mode experienced a powerful revival toward the end of the nineteenth century. Bram Stoker’s *Dracula* introduced the iconic vampire figure and examined issues of sexuality, superstition, and modernity. Robert Louis Stevenson’s *Dr. Jekyll and Mr. Hyde* used Gothic elements to explore the dual nature of identity and the darker sides of human personality. Oscar Wilde’s *The Picture of Dorian Gray* combined psychological Gothic themes with moral corruption and supernatural punishment.

The legacy of the Gothic novel persists in modern literature, film, and cultural imagination. Contemporary horror fiction, psychological thrillers, ghost

stories, and dark fantasy all draw inspiration from Gothic traditions. Writers such as Stephen King, Shirley Jackson, and Anne Rice continue to explore fear, the supernatural, and human psychology through Gothic frameworks. Moreover, Gothic imagery remains central in cinema—from classic horror films to modern supernatural dramas and Gothic-inspired fantasy worlds.

The Gothic novel remains one of the most influential and enduring genres in the history of English literature. From its eighteenth-century origins to its modern reinterpretations, the Gothic tradition has consistently captured readers' imaginations with its exploration of fear, mystery, and emotional intensity. It has shaped major literary movements, influenced famous works across different periods, and continues to inspire contemporary storytelling in diverse forms. The Gothic genre survives because it speaks to universal human emotions and questions—our fascination with the unknown, our struggles with inner darkness, and our desire to explore the borders between reality and imagination.

REFERENCES

1. Botting, Fred. *Gothic*. Routledge, 2014.
2. Punter, David. *The Literature of Terror: A History of Gothic Fictions from 1765 to the Present*. Longman, 1996.
3. Hogle, Jerrold E. (ed.). *The Cambridge Companion to Gothic Fiction*. Cambridge University Press, 2002.
4. Miles, Robert. *Gothic Writing 1750–1820: A Genealogy*. Routledge, 2002.
5. Walpole, Horace. *The Castle of Otranto*. Oxford University Press, 2008.
6. Radcliffe, Ann. *The Mysteries of Udolpho*. Oxford University Press, 1998.
7. Lewis, Matthew. *The Monk*. Penguin Classics, 1998.
8. Shelley, Mary. *Frankenstein*. Penguin Classics, 2003.
9. Brontë, Emily. *Wuthering Heights*. Penguin Classics, 2003.
10. Stoker, Bram. *Dracula*. Oxford University Press, 2011.

Sentimentalism in the 18th Century: Samuel Richardson and Laurence Sterne Isroilova Tursuntosh

Chirchiq Davlat Pedagogika Unibersiteti,
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

Kamilberdiyeva Barnoxon Xusniddin qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talaba

Abstract. This paper examines the development of Sentimentalism in 18th-century English literature through the works of Samuel Richardson and Laurence Sterne. Sentimentalism emerged as a reaction to Enlightenment rationalism, emphasizing emotional sensitivity, sympathy, and moral virtue as central aspects of human experience. Samuel Richardson's epistolary novels, particularly *Pamela* and *Clarissa*, established the psychological depth and moral seriousness of the sentimental tradition by revealing characters' inner conflicts and emotional struggles. Laurence Sterne, in contrast, combined sentiment with humour and narrative experimentation in works such as *Tristram Shandy* and *A Sentimental Journey*, highlighting the beauty of everyday emotional experiences while gently satirizing exaggerated sensibility. By comparing the two authors, the study demonstrates how their distinct approaches contributed to the development of the sentimental novel and influenced later European and Romantic literature. The paper concludes that Sentimentalism played a crucial role in expanding the literary representation of emotion and laying the foundation for modern psychological fiction.

Key Words: Sentimentalism; 18th-century literature; Samuel Richardson; Laurence Sterne; epistolary novel; psychological realism; sensibility; emotion; moral virtue; *A Sentimental Journey*; *Tristram Shandy*.

The 18th century in England was a period of significant cultural and intellectual transformation. While the Enlightenment emphasized reason, logic, and scientific progress, another important trend — Sentimentalism — emerged as a reaction to excessive rationality. Sentimentalism placed emotion, sympathy, and moral sensitivity at the center of human experience. Two important literary figures who profoundly shaped this movement were **Samuel Richardson** and **Laurence Sterne**. Their works introduced new ways of exploring psychological depth, human compassion, and the moral power of feeling.

Sentimentalism arose partly as a response to the cold intellectualism of the time. Thinkers like David Hume and Adam Smith had argued that sympathy was a natural human instinct. This idea influenced writers who believed literature should touch the heart, awaken compassion, and show the emotional foundations of virtue.

The main features of sentimental literature included the exploration of inner feelings, the representation of moral dilemmas, an emphasis on sympathy, and detailed depictions of emotional experiences. Writers often used first-person narration or epistolary forms to create an intimate connection between the reader and the characters. Sentimentalism turned attention away from heroic events

toward ordinary people whose personal experiences, sufferings, and moral choices carried universal meaning.

Samuel Richardson and the Birth of the Psychological Novel

Samuel Richardson is considered one of the founders of the sentimental novel. His works introduced detailed emotional introspection and moral sensitivity into English fiction. Before Richardson, novels tended to focus on external events or humorous episodes. He shifted attention to the **inner life** of characters.

One of Richardson's major contributions was his use of the epistolary form. In novels such as *Pamela* and *Clarissa*, the story unfolds through letters written by the characters. This narrative technique allowed readers to delve directly into the characters' thoughts, emotions, and moral struggles. Their fears, hopes, dilemmas, and reflections become vivid and immediate.

In *Pamela*, Richardson demonstrates how emotional honesty and moral virtue can empower a socially vulnerable young woman. The heroine's purity and sincerity help her overcome the attempts to manipulate her. Through her emotional resilience, Richardson argues that virtue can triumph even in difficult circumstances.

In *Clarissa*, he takes sentimental exploration to a deeper level. Clarissa's tragic story reveals the psychological suffering caused by family pressure, social expectations, and moral injustice. Her letters are full of emotional turmoil, moral reasoning, and spiritual reflection. Richardson's novel shows how society can destroy a virtuous person when it ignores compassion and humanity. His portrayal of psychological complexity influenced later generations of writers across Europe.

Laurence Sterne: Emotion, Irony, and Narrative Experimentation

Laurence Sterne approached Sentimentalism from a different angle. While Richardson's stories were serious and morally instructive, Sterne introduced humour, irony, and experimental techniques.

His famous novel *Tristram Shandy* breaks almost every traditional rule of storytelling. Instead of a straightforward narrative, the book uses digressions, playful commentary, and unconventional structures. Yet, beneath the humour, the novel contains deeply emotional scenes. Sterne's characters — especially Uncle Toby — exemplify pure kindness, innocence, and sincere sympathy. Sterne shows that emotional sensitivity can be gentle, natural, and even humorous.

In *A Sentimental Journey*, Sterne focuses on small, tender moments of human connection. The narrator, Yorick, travels through France and becomes emotionally affected by the people he meets. Instead of dramatic events, the novel highlights everyday gestures of kindness, compassion for strangers, and spontaneous feelings. Sterne suggests that a person's moral worth is revealed not through grand actions but through the ability to feel deeply and respond lovingly to others.

Unlike Richardson, Sterne often satirized exaggerated or artificial displays of emotion. His balance of sentiment and humour prevented sentimental literature

from becoming overly dramatic, offering a more realistic and lively approach to human sensitivity.

Richardson and Sterne: Two Faces of Sentimentalism

Although both authors contributed significantly to Sentimentalism, their approaches were distinct. Richardson focused on moral seriousness, psychological depth, and the emotional suffering of his characters. His novels highlight the challenges individuals face when confronted with moral dilemmas or social injustice. Sterne, meanwhile, celebrated spontaneous emotion, everyday experiences, and gentle humour. While Richardson used sentiment to teach moral lessons, Sterne used it to explore the joy, warmth, and humanity found in ordinary life.

Despite these differences, both writers expanded the possibilities of the novel. They demonstrated that literature could explore the emotional aspects of the human condition, creating stories that touch readers' hearts while offering insight into the universal experiences of love, suffering, and compassion.

Sentimentalism in the 18th century played a crucial role in transforming English literature. By shifting attention from reason to emotion, sentimental writers challenged the dominant intellectual worldview of their time and emphasized the importance of sympathy, kindness, and moral sensitivity. Samuel Richardson laid the foundations of the sentimental novel through his detailed psychological portrayals and morally serious epistolary narratives. Laurence Sterne enriched the movement by combining emotional sincerity with humour, stylistic innovation, and a celebration of simple human connections.

Together, they shaped a literary movement that influenced not only English fiction but also the broader European tradition. Sentimentalism opened the door to Romanticism and helped establish the foundations of modern psychological realism. It demonstrated that literature becomes truly powerful when it reflects the full depth of human emotion and the moral complexities of everyday life.

References

1. **Richardson, samuel.** *Pamela; or, virtue rewarded.* Oxford university press, 2001.
2. **Richardson, samuel.** *Clarissa: or the history of a young lady.* Penguin classics, 1985.
3. **Sterne, laurence.** *The life and opinions of tristram shandy, gentleman.* Oxford world's classics, 2003.
4. **Sterne, laurence.** *A sentimental journey through france and italy.* Penguin classics, 2001.
5. **Richetti, john.** *The cambridge companion to the eighteenth-century novel.* Cambridge university press, 1996.
6. **Mullan, john.** *Sentiment and sociability: the language of feeling in the eighteenth century.* Oxford university press, 1988.
7. **Todd, janet.** *Sensibility: an introduction.* Methuen, 1986.
8. **Mcgann, jerome.** *The poetics of sensibility: a revolution in literary style.* Oxford university press, 1996.

Qurilish kompaniyasida menejment tizimini takomillashtirish

Madalievva Saodatxon Kadirjanovna

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistratura tinglovchisi
saodatequip@yahoo.com

Annotasiya. Mazkur maqolada qurilish kompaniyasi misolida menejment tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida “Trest” AJ faoliyatida mavjud boshqaruv muammolari, xususan, tashkiliy tuzilmaning markazlashganligi, qarorlar qabul qilish jarayonining sustligi, xodimlar motivatsiyasi va KPI tizimining yetarli darajada joriy etilmagani aniqlangan. Moliyaviy tahlil natijalari kompaniyada likvidlik va moliyaviy mustaqillik darajasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada menejment tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida matritsali boshqaruv modeliga o‘tish, xodimlar faoliyatini KPI asosida baholash, rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish hamda raqamli texnologiyalarni (ERP, BIM, IoT) joriy etish taklif etilgan. Shuningdek, korporativ boshqaruvni rivojlantirish, ichki va tashqi auditni kuchaytirish hamda xalqaro tajribalarni integratsiyalash kompaniyaning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish kompaniyasi, menejment tizimi, tashkiliy tuzilma, KPI, xodimlar motivatsiyasi, moliyaviy boshqaruv, raqamli transformatsiya, ERP tizimi, BIM texnologiyalari, korporativ boshqaruv, raqobatbardoshlik.

KIRISH. “Trest” AJ faoliyatida menejment tizimini takomillashtirish masalasi bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Ayni paytda qurilish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy va texnologik omillarning murakkab uyg‘unligi, shuningdek, menejment tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi kompaniya samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, “Trest” AJ faoliyatida boshqaruv tizimini strategik asosda qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish va xalqaro tajriba asosida moslashtirish dolzarb ehtiyoj hisoblanadi.

Kompaniyada kuzatilayotgan boshqaruvdagi asosiy muammolar bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, tashkiliy boshqaruv tuzilmasining markazlashganligi natijasida qarorlar qabul qilish jarayoni sust kechmoqda. Filiallar va bo‘limlar o‘rtasida yetarli darajada vakolatlar bo‘linmagan, bu esa tashabbuskorlikning pasayishiga, ijro intizomi va innovatsion faollikning kamayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, xodimlar motivatsiyasining pastligi, rag‘batlantirish tizimining samarasizligi, KPIning (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) amaliyotda qo‘llanilmasligi va natijaviy mehnat bahosining yo‘qligi mehnat unumdorligiga salbiy ta‘sir qilmoqda.

ASOSIY TADQIQOT. “Trest” AJ ning moliyaviy tahlili shuni ko‘rsatdiki, kompaniya likvidlik, moliyaviy mustaqillik va foydalilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha muayyan zaifliklarga ega. 2023 yil yakuni bo‘yicha joriy likvidlik koeffitsienti

1.18 ni, mutlaq likvidlik koeffitsienti esa 0.56 ni tashkil etdi. Bu esa qisqa muddatli majburiyatlarni to'liq qoplashda yetarli darajadagi salohiyat yo'qligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'z va jalb etilgan mablag'lar nisbati 0.27 ni tashkil qilgan bo'lib, bu kompaniya moliyaviy mustaqilligining pasayganidan darak beradi. Dividend siyosatining izchil emasligi, 7.2 mlrd so'mlik to'lanmagan dividendlar mavjudligi investorlarga nisbatan ishonchni susaytirgan. Shu bois, menejment tizimi moliyaviy boshqaruvni ham o'z ichiga olgan holda tubdan isloh qilinishi lozim.

Qurilish sohasidagi zamonaviy tendensiyalar, jumladan, raqamli transformatsiya, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, BIM texnologiyalarining keng joriy qilinishi, loyihalarning "yupqa" boshqaruvi (Lean Construction), ekologik standartlarga amal qilish kabi yondashuvlar "Trest" AJ uchun ham dolzarbdir. Ammo amalda kompaniyada bu kabi yondashuvlarning joriy qilinishi sust kechmoqda. Masalan, BIM texnologiyalarining faqat bir necha loyihalarda cheklangan darajada qo'llanilishi, ERP tizimining yo'qligi, ma'lumotlar bazasining fragmentatsiyaligi, ishlab chiqarish maydonlarida avtomatlashtirish va monitoring texnologiyalarining kamligi tashkilotning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda.

Menejment tizimini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri bu – tashkiliy tuzilmani qayta ko'rib chiqish, ya'ni an'anaviy chiziqli-funksional modeldan matritsali boshqaruv tizimiga o'tishdir. Bu modelda loyihaviy va funksional bo'linmalarining vakolatlari kesishib, har bir loyiha alohida loyiha menejeri tomonidan boshqariladi. Bu yondashuv loyiha boshqaruvining moslashuvchanligini oshiradi, vaqt va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Boshqaruv tuzilmasini matritsaga o'tkazish orqali kompaniya o'zining yirik infratuzilma loyihalarini tizimli ravishda amalga oshira oladi.

Xodimlar motivatsiyasi va inson resurslarini boshqarish yo'nalishida ham sezilarli o'zgarishlar zarur. Bu borada asosiy e'tibor xodimlar faoliyatini samarali baholash, mukofotlash, rag'batlantirish va malaka oshirish tizimlarini shakllantirishga qaratilishi lozim. KPI tizimi asosida xodimlar faoliyatining asosiy natijalari belgilab olinadi va ular asosida mehnatga haq to'lash, mukofotlash yoki jazolash mexanizmlari joriy etiladi. Bu esa xodimlarning tashkilotga bo'lgan sadoqatini oshiradi, mehnat unumdorligini kuchaytiradi.

Moliyaviy boshqaruv tizimida esa avvalo kreditorlik qarzlarni optimallashtirish choralari ko'rilishi lozim. Kompaniya balansida aks ettirilgan 735 mlrd so'mlik avans mablag'larini qayta ko'rib chiqish, ularni qayta moliyalashtirish, qayta tuzish yoki muddatlarini uzaytirish orqali moliyaviy bosimni kamaytirish mumkin. Shuningdek, dividend siyosatini yangilash va reinvestitsiyalarni kengaytirish kompaniya kapitalining ichki manbalardan ko'payishiga xizmat qiladi. Buning uchun dividendlar bo'yicha aniq va izchil siyosat ishlab chiqilishi, ustuvor holda investitsion dasturlarni moliyalashtirish zarur.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali menejment tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Bu borada, birinchidan, BIM (Building

Information Modeling) texnologiyalarining barcha bosqichlarda – loyiha tayyorlash, qurilish, nazorat va ekspluatatsiyada joriy qilinishi kerak. Ikkinchidan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimi – masalan, 1C yoki SAP asosida ishlab chiqilgan maxsus modullar joriy qilinishi zarur. Uchinchidan, IoT texnologiyalaridan (aqlli sensorlar, real vaqtda monitoring), shuningdek, dronlar yordamida qurilish jarayonlarini nazorat qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Bu texnologiyalar vaqtini tejaydi, sifat nazoratini kuchaytiradi, xavfsizlikni oshiradi va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi.

Kadrlar salohiyatini oshirish masalasida “Trest” AJ uchun xalqaro tajriba juda muhimdir. Kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga – masalan, PMP (Project Management Professional), LEED (Green Building Certification), OSHA (mehnat xavfsizligi) asosida tashkil etilishi mumkin. Buning uchun mahalliy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish, xorijiy tajriba asosida malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va doimiy bilimlarni yangilab borish siyosatini yo‘lga qo‘yish lozim.

Kompaniyada ichki audit tizimini kuchaytirish, tashqi moliyaviy audit natijalaridan foydalanish va xalqaro hisobot standartlari (IFRS) asosida moliyaviy natijalarni tayyorlash amaliyotini joriy qilish orqali shaffoflik va hisobot beruvchanlik darajasini oshirish mumkin. Bu esa investorlar va sheriklar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, korporativ boshqaruv tizimini ham isloh qilish lozim. Kuzatuv kengashi faoliyatini faollashtirish, uning tarkibida mustaqil a‘zolar ulushini oshirish, strategik qarorlar qabul qilishda shaffoflik va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish uchun komplayens tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, menejerlar faoliyatining samaradorligini baholovchi yillik hisobotlarni joriy qilish, ularni aksiyadorlar oldida muntazam taqdim etish orqali ochiqlik darajasini oshirish mumkin.

Shu bilan birga, “Trest” AJ davlat bilan xususiy sektor hamkorligi (PPP) asosida loyihalarni amalga oshirish amaliyotini kengaytirishi lozim. Bu kompaniyaning kapital bazasini kengaytirish, texnologik va moliyaviy sheriklik imkoniyatlarini yaratish, davlat buyurtmalarini olishdagi ishonchliligini oshiradi. PPP asosidagi loyihalarda menejment tizimining aniq rejalashtirilgan, xavflar tahliliga asoslangan va samaradorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta‘kidlangan islohotlarning amalga oshirilishi kompaniyaning iqtisodiy ko‘rsatkichlariga bevosita ijobiy ta‘sir qiladi. Xususan, ROE (o‘z kapitalining rentabelligi) ko‘rsatkichi 2.22 foizdan 8 foiz va undan yuqoriga ko‘tarilishi mumkin. Joriy likvidlik 1.18 dan kamida 1.5 ga yetkaziladi. Loyihalarning o‘z vaqtida bajarilish darajasi 88 foizdan 95 foizgacha oshiriladi. Xodimlar qoniqish darajasi 62 foizdan 80 foizgacha ko‘tarilishi kutiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, “Trest” AJ faoliyatida menejment tizimini takomillashtirish kompaniyaning raqobatbardoshligini saqlab

qolish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda tashkiliy tuzilmani qayta ko'rib chiqish, xodimlar motivatsiyasini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish va xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosiy vazifalardir. Shu orqali kompaniya O'zbekiston qurilish sohasida yetakchi mavqegini mustahkamlashi va barqaror rivojlanish strategiyasini shakllantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Qurilish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. // O'RQ – 528-son, 2020 yil 27 mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022 yil 28 yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining "Qurilish sohasini raqamlashtirish konsepsiyasi", 2022.
4. Azimov A.K. "Qurilish loyihalarini boshqarish va byudjetlashtirish tizimi". – Toshkent: TATU nashriyoti, 2021. – 176 bet.
5. Batirbekova A.M. "Loyiha boshqaruvida zamonaviy yondashuvlar: masalalar va yechimlar". // Moliya va hisob jurnali, №3, 2023. – B. 41–47.
6. Kerzner H. "Project Management: A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling". – 13th Ed. – New York: Wiley, 2022. – 928 p.
7. Turner J.R. "Handbook of Project-Based Management". – 4th Ed. – McGraw-Hill, 2019. – 750 p.
8. PMBOK® Guide – A Guide to the Project Management Body of Knowledge. – 7th Edition. – Project Management Institute, 2021.
9. Smith P. "Building Information Modeling (BIM) and Project Management: Benefits and Challenges". // Procedia Engineering, Vol. 196, 2017. – P. 1025–1032.
10. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi statistik byulleteni. – Toshkent, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Qurilish sohasidagi rasmiy ma'lumotlar // <https://stat.uz>, 2024.

400 metr g'ovlar osha yuguruvchilarni, ishlab chiqilgan tezkor chidamlilikni rivojlantirish metodikasini qo'llanilgandan so'ng jismoniy tayyorgarligini shakllanishi

Satkulov Bekzod Mavlyanovich

Andijon davlat universiteti sport va madaniyat fakulteti fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasida o'qituvchisi
bekzodsatkulov4@gmail.com

Annotatsiya: 400 metrda g'ovlar osha yugurish – bu texnik jihatdan murakkab sport turi bo'lib, yuguruvchilar tezlik, chaqqonlik, tezkor chidamlilik va texnikani uyg'unlashtirishlari kerak. Quyida 400 metrda g'ovlar bilan yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini maxsus sinov testlari yordamida aniqlashga e'tibor qaratilgan va yuklamalarning taqsimlanishi, tezkor chidamlilikni rivojlantirish metodikani samaradorligi haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan:

Kalit so'zlar: 400 metrda g'ovlar osha yuguruvchi, sportchilar, jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, portlovchi kuch, sakrash, tezkor chidamlilik, sport natijalari.

So'nggi yillarda yengil atletika sport sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning salmog'i katta bo'layotganligini e'tirof etish lozim. Xususan, sportchilar tayyorlash tizimida malakali sportchilarni tayyorlash, yillik tayyorgarlik mashg'ulot jarayonlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boshqarish tobora ommaviylashib ustivor vazifalarga aylanib ulgurdi. G'ovlar osha yuguruvchi malakali sportchilarni tayyorlash ko'p yillik pedagogik jarayon bo'lib, sport mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich rejalashtirishdan iboratdir. 400 metr g'ovlar osha yuguruvchilarning tayyorgarligini samarali tashkil etish jarayoni sport natijalarining barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tezkor chidamlilikni rivojlantirish metodikani samaradorligini aniqlash maqsadida, 400 metrda g'ovlar osha yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarligini maxsus sinov testlari yordamida aniqlashga e'tibor qaratdik.

Unga ko'ra, 400 metrda g'ovlar osha yuguruvchilarni asosiy tezkor chidamliligini aniqlash maqsadida 400 metrda g'ovlar osha yugurish sinovi orqali aniqladik. Tajriba guruh sinoluvchilari ushbu 400 metrda g'ovlar osha yugurishda masofani o'rtacha $56,70 \pm 0,15$ soniyada yugurib o'tgan bo'lsa, kuchini 30 m masofaga pastki startdan chiqib yugurish sinovi orqali aniqlashga e'tibor berdik. Tajriba guruh sinoluvchilari ushbu 30 m masofani o'rtacha $4,40 \pm 0,20$ soniyada yugurib o'tgan bo'lsa, tezkor chidamlilikni ifodalovchi 100 m masofaga yugurishni $12,40 \pm 0,07$ soniyada yugurib o'tishga erishdi. Maxsus chidamlilik sifatini ko'rsatuvchi past startdan yugurish 400m $56,10 \pm 0,28$ soniya yugurib o'tishga erishilgan bo'lsa, 1000 m masofani $2,52.00 \pm 3,35$ daqiqa/soniyada yugurib o'tishdi. Oyoqni portlovchi kuchini aniqlashda joyidan turib uzunlikka sakrashda o'rtacha natija $256,0 \pm 1,04$ sm.ni tashkil etdi. Joyidan uch hatlab sakrashda esa o'rtacha natija $720,0 \pm 0,10$ sm.ni tashkil qildi. Tajriba guruxidan olingan natijalarga e'tibor

beradigan bo'lsak, tajriba guruhida ko'rsatilgan mashg'ulot uslubiyati ularni jismoniy tayyorgarligini shakllanishiga imkon yaratganligini ko'rishimiz mumkin. (1-jadvalda).

Nazorat guruhini xam tajriba guruhida olingan oltita maxsus testlar arsenalidan foydalanib, tadqiqot jarayonida jismoniy tayyorgarlik darajasini shakllanishini aniqladik.

Unga ko'ra, 400 mertga g'ovlar osha yuguruvchilarni tezkor kuchini 30 m masofaga pastki startdan chiqib yugurish sinovi orqali aniqlashga e'tibor berdik. Nazorat guruh sinalluvchilari ushbu 400 mertga g'ovlar osha yugurish masofasini $60,0 \pm 0,72$ daqiqa/soniyada yugurib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. 30 m masofani o'rtacha $4,70 \pm 0,22$ soniyada yugurib o'tgan bo'lsa, tezkor chidamlilikni ifodalovchi 100 m masofaga yugurishni $12,60 \pm 0,31$ soniyada yugurib o'tishga erishdi.

1-jadval

Tajriba guruhi sinalluvchilarini tadqiqot boshi va oxiridagi jismoniy tayyorgarligini shakllanish dinamikasi

№	Sportchilarning F.I.	400m g'o (sek)		Past startdan yugurish 30m(sek)		Past startdan yugurish 100m (sek)		Past startdan yugurish 400m (sek)		1000m ga yugurish (sek)		Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)		Joyidan turib uchxatla b sakrash (sm)	
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
1	X. Ж	64,8	56,8	4,7	4,4	12,4	12,3	59,8	55,6	186,4	176,2	225	256	6,2	6,5
2	B. Ф	65,6	56,5	4,9	4,3	12,6	12,4	60,2	56,2	185,4	174,5	226	256	6,3	6,4
3	A. A	64,9	56,8	4,6	4,5	12,8	12,4	60,8	55,8	184,6	174,4	218	255	6,1	6,5
4	X. Б	65,4	56,6	4,9	4,4	12,6	12,3	59,8	56,5	187,1	167,2	221	257	5,8	6,4
5	X. III	65,5	56,8	5,1	4,3	12,5	12,3	60,1	56,2	186,1	166,4	223	256	5,9	6,3
6	O. Э	64,4	56,6	4,6	4,5	13,1	12,4	59,8	56,3	187,1	167,6	220	258	6,2	6,5
7	A. Б	65,4	56,8	4,8	4,4	12,7	12,4	60,2	56,2	185,2	173,1	224	256	6,5	6,4
8	Д. С	64,7	56,6	4,8	4,5	12,8	12,5	59,6	56,2	185,6	174,2	230	256	6,6	6,5

9	T. O	64,5	56,4	4,6	4,4	12,4	12,4	59,5	55,6	186,1	173,4	224	257	6,3	6,3
10	Э. А	64,8	56,8	4,7	4,3	12,8	12,5	59,3	56,1	185,5	172,6	224	255	6,1	6,4
11	А. Д	65,3	56,8	5,2	4,5	13,5	12,5	60,5	56,3	186,4	172,4	223	254	6,2	6,3
12	А. М	64,7	56,9	4,7	4,3	13,4	12,4	59,2	56,2	186,5	172,6	218	256	6,2	6,2
X		65	56,7	4,8	4,4	12,8	12,4	59,9	56,1	186	172,0	223	256	6,20	7,20

Izoh: JTUS- Joydan turib uzunlikka sakrash, JTUXS- Joydan turib uch xatlab sakrash.

2-jadval

Nazorat guruhi sinaluvchilarini tadqiqot boshi va oxiridagi jismoniy tayyorgarligini shakllanish dinamikasi

№	Sportchi -larning F.I.	400m g'o (sek)		Past startdan yugurish 30m(sek)		Past startdan yugurish 100m (sek)		Past startdan yugurish 400m (sek)		1000m ga yugurish (sek)		Joydan turib uzunlikka sakrash (sm)		Joydan turib uchxatlab sakrash (sm)	
		TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO	TB	TO
1	X. A	64,1	59,8	4,7	4,7	12,4	12,4	59,2	57,8	186,4	172,1	225	256	6,2	6,5
2	М. Б	63,6	60,2	4,9	4,9	12,6	12,6	59,3	58,2	185,4	170,2	226	256	6,3	6,4
3	А. М	64,2	59,9	4,6	4,6	12,8	12,4	59,1	57,8	184,4	171,2	223	255	6,5	6,5
4	X. O	64,4	60,2	4,9	4,9	12,6	12,6	59,2	57,8	186,1	171,1	224	257	6,7	6,4
5	Б. М	65,5	60,3	5,1	5,1	12,5	12,5	59,1	58,1	186,1	172,1	223	256	5,9	6,3
6	А. М	63,8	60,2	4,6	4,6	13,1	12,4	59,4	57,8	187,1	169,1	225	258	6,2	6,4
7	Р. Д	63,8	59,4	4,8	4,6	12,7	12,7	59,2	58,4	185,2	169,2	224	256	6,5	6,4
8	А. Д	63,9	60,1	4,8	4,8	12,8	12,5	59,5	58,2	185,6	165,5	229	256	5,8	6,5

9	K. P	64,5	60,1	4,6	4,6	12,4	12,4	59,5	58,1	186,1	171,1	224	257	6,3	6,4
10	A. A	63,8	59,8	4,7	4,7	12,8	12,8	59,3	57,3	185,5	166,2	224	255	6,5	6,4
11	A. Ǝ	65,3	60,2	5,2	4,2	13,5	13,5	59,6	58,3	186,4	172,2	223	254	6,3	6,3
12	A. III	64,7	59,8	4,7	4,7	13,4	12,4	59,2	58,2	186,5	172,1	218	256	6,3	6,2
	X	64,3	60	4,8	4,7	12,8	12,6	59,3	58	185,9	170	224	256	6,29	6,39

Izoh: JTUS- Joydan turib uzunlikka sakrash, JTUXS- Joydan turib uch xatlab sakrash.

Maxsus chidamlilik sifatini ko'rsatuvchi past startdan yugurish 400 m $58,00 \pm 0,31$ soniya yugurib o'tishga erishilgan bo'lsa, 1000 m masofani $2,59.00 \pm 2,32$ daqiqa/soniyada yugurib o'tishdi. Oyoqni portlovchi kuchini aniqlashda joyidan turib uzunlikka sakrashda o'rtacha natija $256,0 \pm 1,04$ sm.ni tashkil etdi. Joyidan uch hatlab sakrashda esa o'rtacha natija $693,0 \pm 0,10$ sm.ni tashkil qildi. Nazorat guruxidan olingan natijalarga e'tibor beradigan bo'lsak, nazorat guruhi sinaluvchilarini sport natijalari tajriba guruhiga nisbatan ularni jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari ancha past darajada shallanganligini ko'rsatdi. (2-jadvalda).

Xulosa: O'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhi o'rtasida tadqiqot so'ngida barcha ko'rsatkichlarda sezilarli farqlar borligi olingan natijalarda kuzatildi. Nazorat guruhi sinaluvchilari amaldagi dastur bo'yicha mashg'ulotlarda ishtirok etganligi ularni jismoniy tayyorgarligini o'rtacha shakllanishini ta'minlashga imkon bergan bo'lsa, ishlab chiqilgan metodlarni qo'lanishi natijasida tajriba guruhi sportchilarida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada shakllanishiga va sport natijasini yuksalishiga xizmat qilganligini olib borilgan tadqiqotda yana bir bor o'z isbotini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Matveev L.P. Teoriya sporta. – Moskva: Fizkultura i sport, 2016. – 544 s.
2. Muxsinbek OLIMOV. Yengil atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va boshqarish texnologiyasi. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-son (2021-yil, iyun).
3. Olimov, Muxsinbek Sotiboldiyevich (2021) "A method of special physical training of short-distance runners in athletics", Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1: Iss. 2, Article 17. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/17/>
4. Iqrorjon Roziqovich Soliev, Larisa Vladimirovna Smurygina. TECHNOLOGIES FOR PREPARING RUNNERS AVERAGE DISTANCES TO

COMPETITION. Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL). 2776-0995 Volume 2, Issue 10, Oct, 2021. 21-27. <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/144>

5. Soliev I.R., Khaydarov B., Mirzatillaev I., Khojamkeldiev G., Ziyaev F., Functional training level of runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020, <http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/>

6. Soliev I.R., Davidova K.R., Azamova G. E. Analysis of the training and management process management system in athletics. Academic Research in Educational Sciences. Volume2/Special issue 1/2021

7. "Лёгкая атлетика: барьерный бег" – В.П. Филин (Rossiya) - To‘siqlar bilan yugurishning texnik jihatlari va boshlang‘ich tayyorgarlik. - Qo‘llanilgan qismi: 3–5–3 to‘siqli kombinatsiyalar va saralash testlari.

8. "Yengil atletika: nazariya va metodika" – Toshkent davlat jismoniy tarbiya instituti - O‘zbekistonda qo‘llaniladigan yillik tayyorgarlik bosqichlari.- Qo‘llanilgan qismi: Mavsumoldi bosqichida 350 m to‘liq bo‘lmagan masofalar bilan ishlash.

9. "Барьерный бег: от новичка до мастера" – Ю.Г. Травин - Yosh sportchilarni saralashda texnikani baholash mezonlari. - Qo‘llanilgan qismi: 5 ta to‘siqni 50 m masofada bosib o‘tish testi.

10. "Physiology of Sports and Exercise" – Wilmore & Costill - Anaerobik chidamlilikni rivojlantirish uchun lactate threshold nazariyasi. - Qo‘llanilgan qismi*: 400 m to‘siqlar uchun optimal puls zonasi (170–190 bpm).

Zamonaviy buxgalteriya dasturlarida ish haqi hisobini yuritishning afzalliklari

Nasriddinova Ravshanoy g'ayratjon qizi

Andijon Davlat Texnika Instituti

„Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezis zamonaviy buxgalteriya dasturlarida ish haqi hisobini yuritishning afzalliklarini tahlil qiladi. Raqamli texnologiyalar ish haqi jarayonlarini avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish, qonunchilik talablariga moslashish, moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlash va xodimlar bilan shaffof aloqalarni osonlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash, budget rejalashtirish va korxonada samaradorligini oshirishdagi raqamli buxgalteriya tizimlarining roli ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ish haqi dasturlari biznes jarayonlarini soddalashtirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy buxgalteriya dasturlari, ish haqi hisobini avtomatlashtirish, moliyaviy xavfsizlik, qonunchilikka moslashuv, bulutli texnologiyalar, zamonaviy texnologiyalar, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi buxgalteriya hisobini yuritish usullariga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ish haqi hisobini avtomatlashtirish zamonaviy buxgalteriya dasturlarining eng muhim funksional yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. An‘anaviy qo‘lda yuritiladigan ish haqi hisobi ko‘p vaqt talab qilishi, xatoliklarga moyilligi va qonunchilikdagi o‘zgarishlarga tez moslasha olmasligi bilan ajralib turadi. Shu bois, zamonaviy buxgalteriya dasturlarida ish haqi hisobini yuritishning afzalliklarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari futbol murabbiylari faoliyatida zamonaviy mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini doimiy nazorat qilish va unga mos mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish bolalar sportining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yondashuvni amaliyotga keng joriy etish bolalar futbolini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari futbol sport mashg'ulotlarini bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda tashkil etish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida individual yondashuv asosida rejalashtirilgan mashg'ulotlar bolalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan birga, ularning sog'lig'ini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, mashg'ulot yuklamalarining bosqichma-bosqich va me'yoriy tarzda berilishi bolalar organizmining moslashuv imkoniyatlarini oshirdi.

Shuningdek, jismoniy rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan bolalar bilan ishlashda yagona standart mashg'ulotlardan voz kechib, differensial yondashuvni qo'llash zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu yondashuv bolalarda jarohatlanish xavfini kamaytirib, mashg'ulot jarayonining uzluksizligini ta'minladi hamda

sportga bo'lgan qiziqishni oshirdi. Tadqiqot natijalari futbol mashg'ulotlarini sog'lomlashtiruvchi va rivojlantiruvchi yo'nalishda tashkil etish bolalar sportida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, futbol mashg'ulotlarini bolalarning yosh va jismoniy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bolalar sportini rivojlantirish, sog'lom avlodni shakllantirish va sport natijalarini yaxshilashda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va sport mutaxassislari uchun amaliy tavsiya sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I.A. Sog'lom avlod – yurt kelajagi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
- 2.Xo'jayev F.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
- 3.Nurmatov A.N. Bolalar sportini rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyoy, 2019.
- 4.Abdurahmonov S.B. Futbol mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. – Toshkent, 2020.
- 5.Matkarimov R.R. Yosh futbolchilar tayyorgarligi tizimi. – Toshkent: Akademiya, 2017.
- 6.Platonov V.N. Sport trenirovkasi nazariyasi. – Moskva: Sport, 2016.
- 7.Ozolin N.G. Yosh sportchilarni tayyorlash asoslari. – Moskva, 2014.
- 8.Isayev Sh.T. Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanishi. – Toshkent, 2021.
- 9.Wein H. Developing Youth Football Players. – Human Kinetics, 2011.
- 10.Bompa T., Buzzichelli C. Periodization Training for Sports. – Human Kinetics, 2019.



UDK: 616.831-055.1

ORCID: 0009-003-2505-3985

Gemorragik va ishemik insult bilan og'riqan bemorlarni davolash va parvarish qilish

Isaboyev Bahodir

Chortoq Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatlik Texnikumi
mutaxassis o'qituvchisi

Vahabova Dilnoza

Chortoq Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatlik Texnikumi
mutaxassis o'qituvchisi

Annotatsiya: Insult — markaziy asab tizimining og'ir va hayot uchun xavfli kasalliklaridan biri bo'lib, u gemorragik va ishemik turlarga bo'linadi. Ushbu maqolada insult turlarining patogenezi xususiyatlari, zamonaviy davolash usullari hamda bemorlarni parvarish qilishning klinik va hamshiralik jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, erta reabilitatsiya va kompleks parvarishning bemor hayot sifatiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, differensial yondashuv va to'g'ri tashkil etilgan parvarish insult oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Insult, gemorragik insult, ishemik insult, trombolitik terapiya, reabilitatsiya, parvarish, hamshiralik parvarishi, nevrologiya

KIRISH: Insult dunyo bo'yicha o'lim va nogironlikning yetakchi sabablaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, insultdan keyingi asoratlar bemorlarning kundalik hayot faoliyatini keskin cheklaydi. Insult asosan ikki turga bo'linadi: ishemik insult (miya tomirlarining tromb yoki embol bilan berkilishi natijasida) va **gemorragik insult** (miya ichiga yoki miya pardalari ostiga qon quyilishi natijasida). Mazkur maqolaning maqsadi — gemorragik va ishemik insultda qo'llaniladigan davolash tamoyillari hamda bemorlarni parvarish qilishning ilmiy-amaliy asoslarini yoritishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI: So'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insultni davolashda multidisiplinar yondashuv eng samarali hisoblanadi. Yevropa va Amerika nevrologiya assotsiatsiyalari tavsiyalarida trombolitik terapiya va erta reabilitatsiyaning ahamiyati alohida ta'kidlangan. Shuningdek, hamshiralik parvarishining sifati bemorlarning tiklanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

QO'LLANILGAN METODLAR: Ishemik insultni davolash va parvarish qilish
Ishemik insult barcha insult holatlarining taxminan 80–85 % ini tashkil etadi. Davolashning asosiy maqsadi — miya to'qimasida qon aylanishini tezkor tiklash. Davolash tamoyillari:

- Trombolitik terapiya (alteplaza) — dastlabki 4,5 soat ichida
- Antikoagulyant va antitrombotsitar dori vositalari
- Qon bosimini nazorat qilish
- Neyroprotektiv terapiya

Parvarish qilish jihatlari:

- Hayotiy ko'rsatkichlarni doimiy monitoring qilish
- Yotoq rejimini to'g'ri tashkil etish
- Yutish refleksi buzilgan bemorlarda aspiratsiyani oldini olish
- Teri parvarishi va yotoq yaralarining oldini olish

Gemorragik insultni davolash va parvarish qilish

Gemorragik insult og'ir kechishi va yuqori o'lim ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi.

Davolash tamoyillari:

- Qon bosimini tezkor va nazorat ostida tushirish
- Gemostatik dori vositalari
- Neyroxirurgik aralashuv (ko'rsatma bo'lsa)
- Intrakranial bosimni pasaytirish

Parvarish qilish jihatlari:

- Nevrologik holatni baholash (Glazgo shkalasi)
- Miya shishini oldini olish
- Infeksion asoratlarning profilaktikasi
- Psixologik qo'llab-quvvatlash

Reabilitatsiya va parvarishning ahamiyati

Insultdan keyingi reabilitatsiya erta bosqichdan boshlanishi lozim:

- Fizioterapiya va harakat mashqlari
- Nutq terapevti bilan ishlash
- Psixologik va ijtimoiy moslashuv
- Oila a'zolarini parvarishga jalb etish

NATIJARLAR VA MUHOKAMA: Ilmiy manbalar tahliliga ko'ra:

- Ishemik insultda erta tromboliz nogironlik darajasini 30–40 % ga kamaytiradi
- Gemorragik insultda qon bosimini nazorat qilish o'lim xavfini sezilarli pasaytiradi

• To'g'ri tashkil etilgan parvarish asoratlarni kamaytiradi va reabilitatsiyani tezlashtiradi. **Ishemik insult** — bu miya tomirlarining tromb yoki embol bilan to'silib qolishi natijasida kelib chiqadi. Bu holatda miya to'qimalariga kislorod va ozuqa moddalari yetib bormaydi, natijada asab hujayralari 3–5 daqiqa ichida nobud bo'lishni boshlaydi. **Gemorragik insult** esa miya qon tomirining yorilishi natijasida qonning miya ichiga quyilishi bilan yuzaga keladi. Qon quyilishi miya bosimini oshiradi va asab to'qimalarini siqib, ularning faoliyatini izdan chiqaradi. Insultning eng asosiy sabablari – arterial gipertoniya, ateroskleroz, yurak kasalliklari, qandli diabet, semizlik, chekish, stress, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish va jismoniy faollikning yetishmasligidir. Shuningdek, genetik moyillik ham muhim omillardan biridir. Insultning **birinchi belgilarini erta aniqlash** hayot uchun juda muhim hisoblanadi. Yuzning bir tomoni osilib qolishi, qo'llardan biri kuchsizlanishi, nutqning buzilishi yoki tushunarsiz so'zlash — insultning asosiy alomatlaridir. Bunday holatlarda darhol tez yordam chaqirish zarur. Shifokorlar "FAST" testidan foydalanadilar: **F (Face – Yuz):** Yuzning bir tomoni osilgan yoki

qiyyshayganmi, tekshiriladi. **A (Arms – Qo‘llar):** Qo‘llarni ko‘tarishda biri pastga tushib ketadimi, kuzatiladi. **S (Speech – Nutq):** Bemor so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qila oladimi, aniqlanadi. **T (Time – Vaqt):** Belgilar paydo bo‘lgan zahoti shoshilinch yordamga murojaat qilinadi. Erta tashxis qo‘yish insultning og‘ir oqibatlarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunda kompyuter tomografiyasi (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) eng asosiy diagnostik usullar hisoblanadi. Ular miya qon tomirlaridagi o‘zgarishlarni aniq ko‘rsatadi va insultning turini belgilashga yordam beradi. **Davolash jarayoni** insultning turiga qarab farqlanadi. Ishemik insultda miya qon oqimini tiklash uchun trombolitik dori vositalari qo‘llaniladi. Gemorragik insultda esa miya ichidagi qon ketishni to‘xtatish, qon bosimini normallashtirish va ba‘zan jarrohlik amaliyoti zarur bo‘ladi. Bemorning umumiy ahvoriga qarab fizioterapiya, diyetoterapiya va dori-darmon bilan davolash usullari qo‘llanadi. **Reabilitatsiya** — insultdan keyin bemorning jismoniy va ruhiy holatini tiklashda eng muhim bosqichdir. Reabilitatsiya jarayonida fizioterapiya mashqlari, nutq terapiyasi, psixologik yordam, massaj, suzish va qo‘l-oyoq mashqlari keng qo‘llaniladi. Bemorni jamiyat hayotiga qaytarish, o‘zini mustaqil boshqarishga o‘rgatish ham reabilitatsiyaning asosiy maqsadidir. Shuningdek, profilaktika choralari insultning oldini olishda juda muhim: qon bosimini muntazam o‘lchash, to‘g‘ri ovqatlanish, spirtli ichimlik va chekishdan voz kechish, jismoniy faollikni oshirish, shifokor nazoratida bo‘lish kerak. Har yili profilaktik ko‘rikdan o‘tish va yurak-qon tomir tizimini nazorat qilish insult xavfini kamaytiradi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, insult — bu inson hayoti va sog‘lig‘iga eng katta xavf tug‘diruvchi nevrologik kasalliklardan biri bo‘lib, u markaziy asab tizimining qon bilan ta‘minlanishining to‘satdan buzilishi natijasida miya to‘qimalarining zararlanishi bilan kechadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insultning asosiy sabablari orasida arterial gipertoniya, ateroskleroz, yurak kasalliklari, qandli diabet, chekish, noto‘g‘ri ovqatlanish va stress kabi omillar yetakchi o‘rinda turadi. Ushbu omillarni erda aniqlash va bartaraf etish orqali kasallik xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Erta tashxis insult oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy kompyuter tomografiyasi (KT), magnit-rezonans tomografiya (MRT) va angiografiya usullari yordamida insult turini aniqlash va samarali davolash strategiyasini tanlash imkoniyati mavjud. Ayniqsa, insultning birinchi 3–6 soati “oltin vaqt” deb hisoblanadi — bu davrda o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish bemorning hayotini saqlab qolish va miya faoliyatini tiklashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Reabilitatsiya insultdan keyingi davolashning ajralmas qismi bo‘lib, u bemorning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatini tiklashga qaratilgan. Fizioterapiya, nutqni tiklash mashg‘ulotlari, psixologik yordam, parhez terapiyasi hamda oila a‘zolarining qo‘llab-quvvatlashi tiklanish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, insultdan keyingi reabilitatsiyada **multidisiplinar yondashuv** — ya‘ni shifokor, fizioterapevt, logoped, psixolog va dietolog hamkorligi eng samarali natijalarni

beradi. Tadqiqot yakunlari shuni ko'rsatadiki, insultni erta tashxislash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, muntazam tibbiy ko'riklardan o'tish va xavf omillarini nazorat qilish orqali ushbu kasallikning oldini olish mumkin. Shuningdek, aholining tibbiy savodxonligini oshirish, profilaktika dasturlarini kengaytirish va rehabilitatsiya markazlarini rivojlantirish — insult bilan bog'liq o'lim va nogironlik darajasini kamaytirishning eng muhim yo'llaridan biridir. Gemorragik va ishemik insultni davolashda kasallik turiga mos differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega. Farmakologik davolash bilan bir qatorda, sifatli hamshiralik parvarishi, erta rehabilitatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyotda insult bilan kurashishda kompleks va uzluksiz yondashuv eng samarali yo'l hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). *Global Report on Stroke: Prevention, Diagnosis and Treatment*. Geneva, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. *"Insultni tashxislash va davolash bo'yicha klinik protokollar"*, Toshkent, 2022.
3. Donnan, G. A., Fisher, M., Macleod, M., & Davis, S. M. (2008). *Stroke*. *The Lancet*, 371(9624), 1612–1623.
4. Feigin, V. L., et al. (2021). *Global Burden of Stroke and Risk Factors in 204 Countries and Territories, 1990–2019*. *The Lancet Neurology*, 20(10), 795–820.
5. Kamilov, F. Kh., & Rasulov, B. A. (2021). *Nevrologiyada insult holatlarining klinik tahlili*. *Toshkent tibbiyot akademiyasi jurnali*, №3, 45–
6. Naylor, A. R. (2019). *Medical and Surgical Management of Stroke*. Oxford University Press.
7. Yuldasheva, S. N., & Sharipov, M. A. (2020). *Insultdan keyingi rehabilitatsiya tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari*. *O'zbekiston tibbiyot jurnali*, №4, 63–68.
8. Baxriddinova, M. *Insult (miya qon aylanishining buzilishi) – sabablari, erta tashxis va rehabilitatsiya usullari*. European

The role of critical thinking in primary school students

Khursanova Z.M

Senior lecturer of FerSU, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences,

Karim-akhunova Rayona - student FerSU

Abstract. The article examines the role of critical thinking in the educational process of primary school and its importance for the comprehensive development of a junior school student's personality. In the context of the rapid growth of information, the formation of children's ability to consciously perceive educational material, analyze facts, compare different viewpoints, and draw well-grounded conclusions becomes especially relevant. Primary school represents a fundamental stage at which the foundations of cognitive independence and learning skills are established.

The paper reveals the concept of critical thinking taking into account the age characteristics of primary school pupils and emphasizes its influence on the development of logical thinking, speech, attention, and learning motivation. It is noted that the development of critical thinking contributes to improving the quality of knowledge acquisition, fostering interest in learning, and developing the ability to apply acquired knowledge in practical situations.

Special attention is paid to the role of the teacher in the process of developing critical thinking, as well as to pedagogical methods and techniques that promote its formation, such as problem-based learning, dialogue, work with texts, and game-based and research activities. It is emphasized that purposeful and systematic work on the development of critical thinking in primary school creates a solid foundation for successful learning at subsequent levels of education and contributes to the formation of an active, independent, and responsible personality.

Keywords: critical thinking, primary school, junior schoolchildren, cognitive activity, thinking development, learner independence, educational process, teacher's role.

In today's information-rich society, developing critical thinking in the early stages of learning is of particular importance. Primary school is the most important period for the formation of cognitive skills, value orientations, and independent thinking skills. It is at this age that the foundations of the ability to analyze information, draw conclusions, and make informed decisions are laid.

Critical thinking is a person's ability to meaningfully perceive information, analyze it, compare different viewpoints, ask questions, and formulate well-founded conclusions. For primary school students, critical thinking manifests in the ability to reason, explain their answers, find cause-and-effect relationships, and not accept information without understanding.

Critical thinking is a complex intellectual process aimed at meaningful perception, analysis, and evaluation of information in order to form reasoned judgments and make balanced decisions. It involves a person's active position

towards the acquired knowledge and the ability not only to assimilate information but also to analyze, interpret, and verify it.

In pedagogical context, critical thinking is considered as the learner's ability to understand the content of educational material, identify cause-and-effect relationships, compare different viewpoints, argue their own opinion, and draw independent conclusions. Unlike reproductive thinking, which focuses on simply reproducing knowledge, critical thinking is aimed at its deep understanding and meaningful application.

For elementary school students, critical thinking is manifested in the ability to ask questions, explain the course of their reasoning, find mistakes, analyze the actions of heroes, predict results, and evaluate the received information based on personal experience. It is closely related to the development of logical thinking, speech, attention, and cognitive activity.

Critical thinking includes a number of components: analysis, synthesis, comparison, generalization, evaluation, and reflection. Its important characteristic is the ability to doubt, verify the reliability of information, and understand the basis of one's own judgments. Thus, critical thinking forms students' mental work culture and contributes to the development of an independent, responsible, and active personality.

The importance of critical thinking in primary school

Developing critical thinking in primary school is one of the key tasks of modern education, as it is during this period that the foundations of a child's intellectual, personal, and social development are laid. Primary grades represent an important stage in the formation of cognitive processes, when students develop an attitude towards learning, independent work skills, and the basics of learning ability.

Critical thinking contributes to the active involvement of primary school students in the learning process. Students cease to be passive consumers of information and become active participants in cognitive activity. They learn to ask questions, reflect on the content of the educational material, analyze the information received, and express their own opinion. This increases the level of awareness of learning and contributes to a stronger assimilation of knowledge.

Critical thinking is of particular importance for the development of children's intellectual abilities. In the process of analyzing, comparing, generalizing, and evaluating information, logical thinking, attention, memory, and speech are formed. Students learn to establish cause-and-effect relationships, draw conclusions, and justify their answers, which positively affects the quality of learning activities in all subjects.

Additionally, critical thinking plays an important role in the formation of primary school students' personal qualities. It fosters independence, responsibility, self-confidence, and the ability to make decisions. The child learns to defend their point of view, respect others' opinions, and adequately evaluate the results of their own activities, which is an important condition for successful socialization.

In the context of an information society, the importance of critical thinking increases even more. Even in primary school, children encounter a large amount of information, so

the ability to select reliable information, distinguish facts from opinions, and meaningfully perceive educational material becomes essential. Critical thinking helps to form information literacy and a stable cognitive interest.

The formation of critical thinking in primary school is carried out through various pedagogical methods and techniques. The most effective ones include:

- posing problematic questions and situations;
- organization of dialogues and discussions;
- working with texts (analysis, forecasting, formulating questions);
- use of game and research tasks;
- encouraging reasoned answers and different viewpoints.

Of particular importance is the role of the teacher, who is not only a source of knowledge but also an organizer of cognitive activity, creating conditions for the active thinking of students.

The role of critical thinking in further learning. The critical thinking skills formed in primary school become the foundation for successful learning in subsequent stages of education. They help students better assimilate the learning material, effectively solve learning tasks, and navigate the information space. In addition, critical thinking contributes to the formation of a personality capable of self-development and conscious choice.

Thus, developing critical thinking in primary school students is one of the priority tasks of modern education. Systematic and purposeful work in this direction allows for the formation of children's ability to think independently, analyze information, and apply knowledge in practice, which is an important condition for their successful learning and personal development.

Used literature:

1. Halpern D. Psychology of Critical Thinking. - 4th ed. - St. Petersburg: Iter, 2014.
2. Klarin M. V. Development of critical thinking in education: foreign experience. - Moscow: Prosveshchenie, 2016.
3. Pulat E. S., Bukharkina M. Yu. Modern pedagogical and information technologies in the education system. - M.: Academy, 2015.
4. Selevko G. K. Pedagogical technologies based on activating and intensifying students' activities. - M.: People's Education, 2012.
5. Asmolov A. G. Formation of Universal Learning Actions in Basic and Primary School. - Moscow: Prosveshchenie, 2018.
6. Zimnyaya I. A. Key competencies - a new paradigm of educational outcomes. - M.: Research Center for the Problems of the Quality of Training of Specialists, 2014.
7. Fedorenko N. A. Development of critical thinking of primary school students in the context of implementing FGOS // Primary School. - 2017. - No 4. - P. 18-23.
8. Tyagunova T. N. Formation of critical thinking of primary school students in educational activities // Pedagogical education and science. - 2019. - No. - P. 45-49.
9. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment, 2015.
10. Fisher A., Scriven M. Critical Thinking: Its Definition and Assessment. - London: Center for Research in Critical Thinking, 2011.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini lingvokognitiv tahlilga o'rgatish metodikasi

Kozimova Sadoqat

Osiyo texnologiyalar universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini lingvokognitiv tahlilga o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari, pedagogik zarurati hamda amaliy-metodik jihatlari keng yoritilgan. Lingvokognitiv yondashuv asosida til va tafakkur birligi, o'quvchilarning nutqiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda lingvokognitiv tahlil kompetensiyalarini shakllantirishning bosqichlari, samarali metodlari va didaktik vositalari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: lingvokognitiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, metodika, nutqiy kompetensiya, tafakkur.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqatgina fan asoslarini bilish bilan chegaralanmaydi. Bugungi kunda bo'lajak pedagoglardan o'quvchilarning fikrlash jarayonini rivojlantira oladigan, ularni mustaqil va ongli bilim olishga yo'naltira oladigan yuqori darajadagi metodik va kognitiv kompetensiyalar talab etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsni shakllantirishning ilk va eng muhim bosqichida faoliyat olib borishi sababli uning kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida til nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur va bilishning asosiy quroli hisoblanadi. Shu bois o'qituvchining til hodisalarini chuqur anglab, ularni o'quvchilarga kognitiv jihatdan to'g'ri yetkaza olishi muhimdir. Bu jarayonda lingvokognitiv tahlil muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini lingvokognitiv tahlilga o'rgatish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Lingvokognitiv tahlil tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslari

Lingvokognitiv tahlil kognitiv tilshunoslik yo'nalishiga mansub bo'lib, til birliklarini inson tafakkuri, idroki, bilim va tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Kognitiv tilshunoslik tilni bilimlarni saqlovchi, qayta ishlovchi va uzatuvchi tizim sifatida talqin qiladi.

Lingvokognitiv yondashuv quyidagi asosiy g'oyalarga tayanadi:

- til va tafakkur birligi;
- til birliklarida inson tajribasining aks etishi;
- tushuncha, konsept va obrazlarning til orqali ifodalanishi;
- nutqiy faoliyatning kognitiv xarakterga egaligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tilni o'zlashtirish jarayonida atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytiradilar, tushunchalar tizimini shakllantiradilar. Demak, o'qituvchi til materialini nafaqat grammatik, balki kognitiv jihatdan ham tahlil qila olishi zarur.

Boshlang'ich ta'limda lingvokognitiv yondashuvning ahamiyati

Boshlang'ich ta'limda lingvokognitiv yondashuv quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- o'quvchilarning mantiqiy va obrazli fikrlashini rivojlantirish;
- so'z va tushuncha o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam berish;
- matn mazmunini chuqur idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- nutqiy faollik va mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash.

Lingvokognitiv tahlil asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda bilimlarni mexanik yodlash emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu esa boshlang'ich sinfda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Bo'lajak o'qituvchilarni lingvokognitiv tahlilga o'rgatish tizimli, izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Ushbu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Nazariy-bilimlarni shakllantirish bosqichi. Mazkur bosqichda talabalar:

- kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari;
- lingvokognitiv tahlilning mazmuni va vazifalari;
- til, tafakkur va nutq o'rtasidagi munosabatlar bilan tanishtiriladi.

Bu bosqichda ma'ruza mashg'ulotlari, muammoli savollar, ilmiy matnlar bilan ishlash, tahliliy suhbatlar muhim ahamiyatga ega.

2. Amaliy-tahliliy faoliyat bosqichi. Bu bosqichda talabalar lingvokognitiv tahlilni bevosita amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. Jumladan:

- so'zlarning konseptual mazmunini aniqlash;
- gap va matnlarning kognitiv tuzilishini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf darsliklaridagi matnlarni lingvokognitiv jihatdan o'rganish ishlari olib boriladi.

Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Konseptual xarita”, “Insert” texnologiyalaridan foydalanish talabalar faolligini oshiradi.

3. Ijodiy va reflektiv bosqich. Ushbu bosqichda talabalar:

- lingvokognitiv yondashuv asosida dars ishlanmalari ishlab chiqadilar;
- pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladilar;
- o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Mazkur bosqich bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvokognitiv tahlilni o'qitishda samarali metod va vositalar

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini lingvokognitiv tahlilga o'rgatishda quyidagi metod va vositalar samarali hisoblanadi:

- muammoli ta'lim metodlari;
- interfaol mashg'ulotlar;
- matn bilan ishlash texnologiyalari;
- vizual organayzerlar (sxema, jadval, xaritalar);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.



Ushbu vositalar talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi va lingvokognitiv tahlil ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini lingvokognitiv tahlilga o‘rgatish zamonaviy ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Lingvokognitiv yondashuv o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish, o‘qituvchilarning nutqiy va kognitiv rivojini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu metodikani ta‘lim jarayoniga izchil tatbiq etish boshlang‘ich ta‘lim samaradorligini yanada yuksaltirish imkonini beradi.



Developing historical competencies in students based on the contributions of eastern scholars to scientific progress

Bobonorov Khusan Tolibjonovich

Independent researcher at Navoi State Pedagogical Institute

Phone: +99891 941 33 83; E-mail: x.bobonorov91@gmail.com

Abstract: This scientific article extensively covers the scholarly heritage of Eastern thinkers and their invaluable contributions to scientific development, as well as the didactic possibilities of applying this knowledge in modern history education. The article proposes effective methodological foundations for using the scholarly legacy to develop historical competencies in students, such as forming historical thinking, working with historical sources, conducting scientific research, analytical thinking, and evaluating historical reality. The research is enriched with pedagogical experiments, and the effectiveness of incorporating the heritage of Eastern scholars in the educational process is substantiated with scientific evidence.

Keywords: Eastern scholars, historical competencies, didactic approach, Al-Farabi, Ibn Sina, Al-Biruni, Al-Khwarizmi, Ulugh Beg, historical thinking, source studies, competency-based approach, history education.

The Eastern Renaissance period represents one of the highest pinnacles of world scientific thought. The scholars who emerged during this era made enormous contributions not only to regional but also to global human development. Thinkers such as Farabi, Ibn Sina, Beruni, Al-Khwarizmi, and Ulugbek laid the foundations for numerous scientific disciplines, including mathematics, astronomy, philosophy, medicine, geography, and history. Today, their scientific legacy is valued not only as an invaluable source of historical knowledge but also as a crucial resource for developing students' historical competencies in modern education systems.

In the current era of competency-based approaches, students are expected not merely to memorize historical facts, but to analyze historical realities, work with primary sources, provide evidence, conduct research, and draw conclusions. From this perspective, the scientific heritage of Eastern scholars enriches the content of history lessons, fosters a scientific worldview in students, and contributes to the development of historical thinking.

The research was conducted using the following scientific methods:

1. Historical-analytical method - the lives and scientific heritage of Eastern scholars, historical sources, manuscripts, and scientific research were studied.
2. Competency-based approach - a theoretical model for utilizing the scholars' heritage in the formation of historical competencies was developed.
3. Pedagogical experiment - experimental work was carried out in general education schools.
4. Source analysis - excerpts from the works of Khwarizmi, Ibn Sina, Beruni and other scholars were analyzed, along with their historical information.

5. Pedagogical diagnostics - the level of students' historical competencies was determined, and comparative results were obtained at the end of the experiment.

The significance of Eastern scholars' scientific heritage in history education. Eastern scholars established advanced scientific schools in various fields of science. For example:

- Al-Khwarizmi laid the foundations of algebra and algorithmic theory.
- Al-Farabi developed profound theoretical views in logic, philosophy, pedagogy, and musicology.
- Beruni applied the experimental method in geography, geology, history, and astronomy.

- Ibn Sina established the fundamental scientific principles of medicine.

- Ulugbek elevated the science of astronomy to a new level.

Their legacy contributes to a deeper understanding of historical processes and the study of historical stages in scientific development.

Opportunities for developing historical competencies in students. The legacy of Eastern scholars plays a crucial role in developing the following competencies:

A) Historical thinking

- Connecting scholars' scientific activities with the demands of their time.
- Analyzing the intrinsic connection between their scientific ideas and modern science.

B) Source study competence

- Analyzing historical information in scholars' works.
- Cultivating a culture of working with manuscripts.

C) Analysis and research competence

- Scientific projects for students: "One scholar - one scientific discovery."
- Strengthening scientific thinking by explaining the experimental method.

D) Scientific communication competence

- Organizing presentations, debates, and conference exercises dedicated to scholars.

Experimental results. The conducted pedagogical experiments showed that:

- Students' skills in historical analysis increased by 27-32%.
- Skills in working with sources increased by 23%.
- Scientific communication skills developed by 30-35%.
- The level of historical thinking improved by 25%.

The results proved that utilizing the heritage of Eastern scholars has high effectiveness in developing historical competencies.

The scientific heritage of Eastern scholars is of great importance in enriching the content of history education, developing students' historical thinking, and guiding them towards scientific and analytical research. Using the scholars' heritage based on a competency-based approach encourages students to deeply

understand historical reality, identify cause-and-effect relationships between historical processes, and conduct independent research.

The research results show that the scientific heritage of Eastern scholars is a modern, effective, and scientifically based approach for developing historical competencies in students.

References

1. Abu Nasr Farabi "The Virtuous City." - Tashkent: Fan, 1993.
2. Abu Rayhan Beruni "Monuments Left by Ancient Peoples." - Tashkent: Yangi asr avlodi, 2001.
3. Ibn Sina. "Canon of Medicine." - Tashkent: Abu Ali ibn Sino Foundation, 1999.
4. Al-Khwarizmi M. "Algebra and Balancing." - Tashkent: Fan, 2007.
5. Mirzo Ulugbek. "Zij-i Jadid Guragani." - Tashkent: Fan, 1994.
6. Qosimov B. "History of Uzbek Pedagogical Thought." - Tashkent: University, 2010.
7. Hasanov A., Qodirov R. "Scientific Heritage of the Eastern Renaissance." - Tashkent: Uzbekistan, 2019.
8. UNESCO. "Heritage of Central Asian Scholars in World Civilization." - Paris, 2018.
9. Merojov M. "History Teaching Methodology." - Tashkent: Noshir, 2021.
10. Gafforov Sh. "Central Asian Scholars and the Development of Science." - Tashkent: Fan, 2015.

Innovative methodological foundations for developing digital competencies in engineering education

Nurov Utkir Khudoyberdievich

Independent researcher at the Department of General Technical Sciences, Jizzakh Polytechnic Institute

Phone: +99894 574 67 15; e-mail: a.muxitdinov1987@gmail.com

Abstract: This article analyzes the innovative methodological foundations for developing digital competencies in engineering education. The necessity of enhancing digital literacy among engineering professionals in the context of digital transformation and developing their professional competencies based on new technologies is substantiated. Additionally, methodological approaches for fostering student competence through the use of digital tools, 3D technologies, artificial intelligence, and distance learning systems in the educational process have been developed.

Keywords: engineering education, digital competence, innovative methodology, digital technologies, 3D modeling, artificial intelligence, distance learning, digital transformation.

Today, the engineering education system is closely intertwined with modern digital technologies. In the context of the digital economy, all areas of engineering rely on automation, computer modeling, data analysis, and digital production systems. Consequently, developing digital competencies in future engineers is becoming a key indicator of their professional readiness.

The essence of digital competence and its role in engineering education. Digital competencies are a key factor in shaping the technological thinking of engineering specialists. These competencies encompass skills in working with digital information, collaborating in virtual environments, efficiently utilizing engineering software tools, ensuring data security, and developing algorithmic thinking and programming abilities.

2. Innovative methodological approaches. Project-based learning, digital laboratories, 3D modeling, and the incorporation of artificial intelligence and gamification elements play a crucial role in developing digital competencies in engineering education.

3. Advantages of the digital educational environment. The digital educational environment enables a personalized approach to organizing the learning process, promotes independent learning, and allows for rapid assessment of knowledge.

4. Recommendations for engineering education. It is essential to develop training modules aimed at enhancing digital competencies, improve the qualifications of educators, and implement innovative assessment systems.

The ongoing reforms in our country aimed at strengthening the material, technical, and information base of the educational process in higher education institutions, providing them with high-quality educational literature and advanced pedagogical technologies, and fostering cooperation with leading scientific and educational



institutions worldwide are intensifying the need for continuous improvement of modern professional knowledge and pedagogical skills among teaching staff. Measures to enhance the quality of education in higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan have outlined tasks such as "increasing the participation and initiative of higher educational institutions in the comprehensive reforms being implemented in the country, and monitoring the knowledge and pedagogical proficiency of professors and teachers."

Any complex modern information and communication technologies, integrations, groundbreaking innovations in science, and digital trends are first mastered by the teacher, and then conveyed to the consciousness and thinking of students through the teacher's knowledge, expertise, and abilities. Year by year, the requirements for a teacher's professional activity are increasing. This is a demand of our time. Consequently, the term "pedagogical mastery" applied to teachers will never lose its significance; instead, it will continue to improve, enrich, and adapt to the demands of the era. In the development of a digital society, it is advisable to prepare future specialists in terms of professional potential based on knowledge related to technological production and societal laws that influence the field. The challenges of developing mechanisms, tools, and technologies for preparing teachers with digital competence for professional activities in the modern educational environment remain relevant. In turn, this indicates the need for a scientific understanding of the essence of training teachers with high digital competence in this field of activity.

The term "digital" originates from the Latin and English word "digital" and denotes a qualitative degree indicating "data in numbers, signal," or "step-by-step" sequence. This word, which entered the Uzbek language in the mid-90s of the last century, first appeared in the form of the phrase "digital economy." Even now, while not leaving the sphere of "economics," it has expanded its semantic range, entering other fields with a comprehensive connotation, and has become one of the important terms in the field of information technology. In terms of usage, this word has reached such a level of breadth and productivity that it has undoubtedly become a common word in the Uzbek language, rather than just a term. The phrase "digital competence" refers to "knowledge and skills in the application of digital equipment in connection with specialized field knowledge in various professional areas."

The concept of digital competencies is characterized as a specific feature of a person's (citizen, employee, student) ability to use information and communication technologies in various conditions (work, leisure, training) in order to increase the effectiveness of activities.

In other foreign sources, digital competence is defined as the reliable, critical, and creative use of ICT to achieve goals related to work, education, leisure, and participation in society.

Today, the development of specialists with digital competence is one of the main tasks of the modern society's education system. This task can only be achieved through targeted implementation of teaching methodology for ICT competence based on multimedia educational technologies. In this process, students should be given the opportunity to understand new knowledge, create innovations through skillful application of this knowledge in lessons, and effectively implement newly created methodologies in practice.

The formation of digital competencies in engineering education is one of the priority directions of innovative educational policy today. Organizing the educational process in a digital environment fosters technological thinking in students, developing their ability to analyze problematic situations and find practical solutions. Additionally, educational models created using digital tools enhance the quality of education, individualize the learning process, and increase the effectiveness of preparation for engineering activities.

Literatures

1. Qodirov, A. (2023). Ways to modernize engineering education based on digital technologies. Tashkent: Innovative Education Publishing House.
2. To'xtayev, B. (2022). Methodology for developing digital competencies in technical higher education. Uzbekistan Journal of Pedagogy, No. 4, 45-52.
3. European Commission (2020). DigComp 2.1: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. Karimov, S. & Rustamova, G. (2024). Pedagogical foundations of applying 3D technologies in engineering education. Tashkent: TDPU Publishing House.
5. Alimova, N. (2023). Innovative methods in higher education in the context of digital transformation. Education and Society, No. 2, 30-36.

Reabilitatsiya va kundalik hayot uchun mo'ljallangan adaptiv kiyimlarning konstruktiv yechimlari

Fozilova Muhlisaxon Shukrullo qizi

Farg'ona Davlat texnika universiteti M43-25 guruh magistr talabasi

e-mail muhlisafozilova7879@gmail.com

Xomidov Vohidjon Obidovich

Farg'ona davlat texnika universiteti, t.f.f.d.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda reabilitatsiya va kundalik hayot uchun mo'ljallangan adaptiv kiyimlarning konstruktiv yechimlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida adaptiv kiyimlarning qulaylik, xavfsizlik, ergonomika va gigiyenik talablar bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Shuningdek, adaptiv kiyimlarning inson salomatligi, harakat faolligi va psixologik holatiga ta'siri ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari adaptiv kiyimlarni loyihalashda individual yondashuv va zamonaviy konstruktiv yechimlarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: adaptiv kiyimlar, reabilitatsiya kiyimi, kiyim konstruksiyasi, ergonomika, qulaylik, xavfsizlik, gigiyena, antropometriya, kundalik hayot, maxsus kiyimlar

Аннотация: В данной научной работе анализируются конструктивные решения адаптивной одежды, предназначенной для реабилитации и повседневной жизни. В ходе исследования были выделены аспекты адаптивной одежды, связанные с комфортом, безопасностью, эргономикой и гигиеническими требованиями. Также было проведено научное исследование влияния адаптивной одежды на здоровье человека, двигательную активность и психологическое состояние. Результаты исследования показывают, что индивидуальный подход и современные конструктивные решения важны при проектировании адаптивной одежды.

Ключевые слова: адаптивная одежда, реабилитационная одежда, дизайн одежды, эргономика, комфорт, безопасность, гигиена, антропометрия, повседневная жизнь, специальная одежда

Abstract: This scientific work analyzes the constructive solutions of adaptive clothing intended for rehabilitation and everyday life. In the course of the research, aspects of adaptive clothing related to comfort, safety, ergonomics and hygienic requirements were highlighted. Also, the impact of adaptive clothing on human health, motor activity and psychological state was scientifically studied. The results of the study show that an individual approach and modern constructive solutions are important in the design of adaptive clothing.

Keywords: adaptive clothing, rehabilitation clothing, clothing design, ergonomics, comfort, safety, hygiene, anthropometry, everyday life, special clothing

Reabilitatsiya va kundalik hayot uchun mo'ljallangan adaptiv kiyimlar zamonaviy jamiyatda jismoniy imkoniyati cheklangan, jarrohlik amaliyotidan

keyin tiklanayotgan yoki uzoq muddatli davolanish jarayonida bo'lgan shaxslar hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi. Kiyim inson hayotida nafaqat himoya va estetik vazifani bajaradi, balki uning harakatlanish qobiliyati, sog'lig'i va psixologik holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli adaptiv kiyimlarni loyihalash jarayoni oddiy kiyimlardan tubdan farq qiladi va kompleks ilmiy yondashuvni talab etadi. Bunday kiyimlar konstruksiyasida ergonomika, antropometriya, tibbiy talablar, xavfsizlik va gigiyena omillari uyg'un holda qo'llanilishi zarur.

Adaptiv kiyimlar tushunchasi rehabilitatsiya jarayonida inson tanasining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maxsus kiyimlarni anglatadi. Ushbu kiyimlar tananing ma'lum qismlarini qo'llab-quvvatlash, harakatni yengillashtirish yoki tiklanish jarayonini tezlashtirish vazifasini bajaradi. Rehabilitatsiya davrida inson tanasida mushaklarning zaiflashuvi, bo'g'imlar harakatining cheklanishi yoki tana proporsiyalarining o'zgarishi kuzatilishi mumkin. Shu sababli kiyim konstruksiyasi standart o'lchamlarga emas, balki individual anatomik xususiyatlarga moslashtiriladi. To'g'ri loyihalangan adaptiv kiyim mushaklarga ortiqcha yuk tushishini kamaytiradi, qon aylanishini yaxshilaydi va tananing noto'g'ri holatda bo'lishining oldini oladi.

Rehabilitatsiya uchun mo'ljallangan adaptiv kiyimlar ko'pincha uzoq vaqt davomida kiyiladigan mahsulotlar bo'lib, ularning konstruksiyasi maksimal qulaylikni ta'minlashi lozim. Kiyim tanani siqmasligi, bosim nuqtalarini hosil qilmasligi va terini bezovta qilmasligi kerak. Ayniqsa, uzoq vaqt yotgan yoki o'tirgan holatda bo'ladigan shaxslar uchun kiyim konstruksiyasida bosimni teng taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Noto'g'ri joylashgan choklar yoki qattiq elementlar terida yara paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli adaptiv kiyimlarda silliq choklar, yumshoq materiallar va tanaga mos shakllar qo'llaniladi.

Kundalik hayot uchun mo'ljallangan adaptiv kiyimlar insonning mustaqil harakatlanishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga yordam berishga qaratilgan. Ushbu kiyimlar tashqi ko'rinishi jihatidan oddiy kiyimlarga o'xshash bo'lib, insonning o'zini jamiyatdan ajralib qolgan his qilmasligiga xizmat qiladi. Psixologik jihatdan bu juda muhim omil hisoblanadi, chunki estetik jihatdan chiroyli va qulay kiyimlar insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Kundalik adaptiv kiyimlarda kiyib-yechish jarayonining osonligi alohida e'tiborga olinadi, chunki ko'plab jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar ushbu jarayonda qiyinchiliklarga duch keladi. Kiyim konstruksiyasi ushbu ehtiyojlarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va insonning kundalik faoliyatini yengillashtiradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida musiqaning o'rni juda katta. Prizedentimiz tomonidan musiqiy ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari va ixtisoslashtirilgan musiqa maktablarida musiqiy tarbiya sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan musiqaviy sensor qobiliyatni aniqlash va uni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biriga aylandi.

Musiqa san'ati insoning estetik didini shakllantirish, hissiy dunyosini boyitish va ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Musiqiy idrok, musiqani tinglash va ijro etish jarayoni inson sezgi organlari orqali amalga oshadi.

Shu bois musiqani o'rganishda sensor qobiliyatlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Sensor qobiliyat- bu insonning borliqni sezgi a'zolari yordamida idrok etish, farqlash va tahlil qilish qobiliyatidir. Musiqaviy sensor qobiliyati esa tovush balandligi, dinamika, ritm, tembr, lad kabi musiqiy ifoda vositalarini sezish, taqqoslash va eslab qolish qobiliyatidir.

Musiqani o'rgatishda o'qituvchining asosiy vazifasi bolalarning musiqiy sezgi va idrokini shakllantirishdir. Buning uchun avvalo ularning musiqaviy sensor qobiliyati darajasini aniqlash zarur. Diagnostika natijasiga ko'ra, o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qobiliyatlari bo'yicha individual yondashuvni tashkil etish, ularning qiziqish va imkoniyatlariga mos mashg'ulotlarni tanlash mumkin. Shu sababli, musiqa mashg'ulotlarida musiqaviy sensor qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Musiqaviy sensor qobiliyat - bu shaxsning musiqaviy tovushlarni sezish, idrok etish, farqlash va esda saqlashga qaratilgan mahsus psixologik-pedagogik qobiliyatidir. U insonning tug'ma imkoniyatlari asosida shakllanadi va tarbiya hamda ta'lim jarayonida rivojlanib boradi. Ilmiy adabiyotlarda musiqaviy eshituv, ritmik sezgirlik va emotsional idrokning uyg'unligidan ibborat murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Psixolog A.V.Petrovskining fikricha, sensor qobiliyatlar sezgi organlari orqali olinadigan ma'lumotlarni aniqlik bilan farqlash hamda ongda qayta ishlash ko'nikmasidir. Musiqiy idrok esa umumiy sensor qobiliyatlarning musiqaga xos ko'rinishi sifatida shakllanadi. B.Teplov musiqiy qobiliyatlar nazariyasida musiqaviy sensor - qobiliyatni musiqaning elementlarini - baland-past tovushlar, dinamika, tembr, ritm, lad, ohangmi aniqlash va farqlash imkoniyati sifatida izohlaydi.

Musiqaviy sensor qobiliyatning shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

- tug'ma fiziologik imkoniyatlar - eshitish sezgisi va nerv tizimining rivojlanganligi;
- ijtimoiy muhit - bolaning musiqa bilan erta tanishuvi, oiladagi musiqiy muhit;
- ta'lim-tarbiya jarayoni - musiqa mashg'ulotlarining tizimli tashkil etilishi;
- motivatsiya va qiziqish - musiqaga bo'lgan ehtiyoj va ichki ishtiyoq.

Musiqaviy sensor qobiliyatining rivoji nafaqat musiqiy ta'lim uchun, balki bolaning umumiy intellektual va ruhiy kamoloti uchun ham muhimdir. Chunki musiqa hissiyotni uyg'otadi, tafakkurni faollashtiradi, diqqat va xotirani mustahkamlaydi, estetik didni shakllantiradi.

Musiqaviy sensor qobiliyatni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

1.1. Musiqiy eshituv qobiliyati

Bu musiqaviy sezgirlikning eng muhim turi hisoblanadi. U ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- ✓ nisbiy eshituv - tovushlarning bir-biriga nisbatan baland yoki pastligini farqlash;
- ✓ mutloq eshituv - tovush balandligini hech qanday tayanch tovushsiz aniqlash(kam uchraydi).

1.2. Ritmik sezgirlik

Ritm musiqaning asosiy elementlaridan biridir. Ritmik sezgirlik bu:

- ✓ ohangdagi tezlik o'zgarishlarini sezish;
- ✓ musiqiy zarbani aniq his qilish;
- ✓ ritmni takrorlash va davom ettirish qobiliyatlaridan iborat.

1.3. Lad-tonallikning sezish qobiliyati

Lad - musiqaning ohangiy tuzilishidir. Ushbu qobiliyat orqali o'quvchi kuyning kayfiyatini (quvonchli, mungli, tantanali) sezadi.

1.4. Tembrni farqlash qobiliyati

Har bir musiqa asbobi va inson ovozi o'ziga xos tembrga ega. Tembrni farqalash - bu tovush manbasini aniqlash, ijrovi ovozidagi farqlarni sezish, orkestrlash elementlarini tushunishga yordam beradi.

1.5. Musiqiy xotira

Bu musiqiy obrazlar, kuylar, ritmlar va akkordlarni eslab qolish va qayta tiklash qobiliyatidir. Musiqiy faoliyatda bu qobiliyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa qo'shiq yodlash jarayonida namoyon bo'ladi.

1.6. Musiqiy emotsional sezgirlik

Bu musiqaning hissiy ta'sirini sezish, musiqadan zavq olish va kayfiyatini his qilish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat insonning estetik tarbiyasida asosiy o'rin tutadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda musiqaviy sensor qobiliyatni aniqlash mezonlari.

Musiqaviy sensor qobiliyatni aniqlash, ya'ni diagnostika qilish maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshlang'ich ta'limda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali bolalarning musiqaga bo'lgan tabiiy layoqati, eshituv sezgirligi, ritmik idroki va musiqaviy fikrlash darajasi aniqlanadi. Natijada o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

1.7. Diagnostika mezonlari

Pedagogik-amaliyotda bolalarning musiqaviy sensor qobiliyati quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

Mezoni	Tavsifi
Tovush balandligina farqlash	Baland va past tovushlarni ajrata olishi
Ritmni sezish	Oddiy ritmik shakllarni takrorlashi
Tembrni idrok etish	Turli musiqa asboblari tovushini farqlash
Dinamikani tushunish	Kuchli va past tovushlarni ajratish
Musiqiy xotira	Oddiy kuylarni eslab qayta kuylashi
Emotsional sezgirlik	Musiqaning kayfiyatini to'g'ri aniqlashi

1.8. Baholash darajasi

Bolalarning musiqaviy sensor qobiliyatini 3 daraja asosida baholash:

- ✓ YUQORI DARAJA - musiqiy topshiriqlarni tez va aniq bajaradi, ritmni bemalol ushlaydi, eshituv xotirasi kuchli, musiqa bilan qiziqadi.

✓ O‘RTACHA DARAJA - ba‘zi topshiriqlarda qiylanadi, lekin o‘qtuvchi ko‘magida bajaradi, musiqiy idrok shakllanib boradi.

✓ PAST DARAJADA - ritmni ushlashda qiynaladi, tovushlarni farqlay olmaydi, musiqaga bo‘lgan qiziqish sust.

1.9. Yosh xususiyatlari

✓ 3-4 yosh: tovushlarni eshitish orqali farqlash boshlandi.

✓ 5-6 yosh: ritmik sezgirlik rivojlanadi, sodda qo‘shiqlarni eslab kuylay oladi.

✓ 7-10 yosh: musiqiy xotira va ijodiy idrok mustahkamlanadi, musiqiy fikrlash shakllandi.

Musiqaviy sensor qobiliyatni aniqlashda pedagoglar maxsus diagnostik mashqlar va testlardan foydalanadilar. Diagnostika o‘quvchini sinovdona o‘tzakish emas, balki uning qobiliyat darajasini aniqlash va individual yondashuvni belgilash uchun xizmat qiladi.

2. O‘quvchilarda musiqaviy sensor qobiliyatni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar. Musiqaviy sensor qobiliyat tug‘ma emas, balki muntazam mashg‘ulotlar orqali shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois musiqa o‘qtuvchisining pedagogik yondashuvi, qo‘llaydigan metodlari va mashg‘ulotlarni tashkil etish mahorati juda muhimdir. Quyida sensor qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradigan samarali usullar keltiriladi.

a) Ritmni rivojlantirish mashqlari: ritmik o‘yinlar qo‘llash: ”Qarsak bilan javob ber”, ”Ritmni takrorla”, bolalarni she‘r va musiqani uyg‘unlashtirishga o‘rgatish.

✓ Metronom bilan ishlash, maromni saqlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

b) Eshituv idrokini rivojlantirish mashqlari: pianinoda tovush juftliklarini chalib farqlash mashqlari. ”Qaysi tovush ortdi yoki pasaydi?” kabi savollarga javob topish. Tez-tez solfedjio mashqlarini o‘tkazish.

v) Tembrni sezishni rivojlantirish: turli asboblarni tinglash va nomini topish, audio yozuvlar orqali farqlashni o‘yinlari tashkil qilish, asboblarning tovushini taqqoslash mashqlari.

g) Musiqiy xotirani rivojlantirish: oddiy qisqa kuylarni eslab kuylash topshiriqlari, qo‘shiqlarni bo‘lin-bo‘lib yodlash texnologiyasi, kuyni davom ettirish mahqlari (“Kuyni davom et...”)

d) Emotsional sezgirlikni oshirish usullari: musiqa tinglash mashg‘ulotlarini muntazam o‘tqazish, tinglangan musiqa haqida o‘quvchilarning fikrini so‘rash, ”musiqaga mos rasm” metodidan foydalanish.

e) O‘yin texnologiyalaridan foydalanish

Bolalar musiqani eng yaxshi o‘yin jarayonida o‘zlashtiradilar: qo‘shiqlar zanjiri, kim tez takrorlaydi, melodiya topish o‘yini .

Individual yondashuvda har bir bola o‘z qobiliyatiga ko‘ra o‘rganadi, shu sabab:

- kuchli o‘quvchilar bilan murakkab vazifalar berish;

- qiyinlanadigan bolalarga sodda mashqlar berish va rag‘batlantirish metodini

qo'llash zarur.

Bu tavsiyalar musiqiy mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga va o'quvchilarni musiqaviy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqaviy sensor qobiliyat - bu o'quvchilarning musiqani eshitish, idrok etish, farqlash va tahlil qilish imkoniyatini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik ko'rsatkichdir. U musiqiy ta'limning poydevori hisbolanib, ritmni his qilish, ohangni ajratish, tembrni farqlash, dinamikani sezish va musiqiy xotirani rivojlantirish orqali shakllanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqaviy sensor qobiliyatni aniqlash va to'g'ri rivojlantirish o'quvchilarda nafaqat musiqiy layoqatni kuchaytiradi, balki ularning estetik didi, diqqat, xotira, hissiy madaniyat va ijodkorlik salohiyatining o'sishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois musiqa mashg'ulotlarida sensor qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv muhim o'rin tutadi.

Musiqa o'qituvchisining professional yondashuvi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, musiqiy o'yinlar, interaktiv mashqlar va AKT vositalaridan foydalanish musiqiy sensor qobiliyatni samarali rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, har bir o'quvchiga individual yondashuv, ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish yuqori natijaha erishishning asosiy shartidir.

Shunday qilib, musiqiy sensor qobiliyatni aniqlash va rivojlantirish - musiqiy tarbiya jarayonining ajralmas bo'lagi bo'lib, u musiqaga qiziqadigan va musiqiy madaniyatga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliev Y.B. Bolalarni musiqiy tarbiyalash usuli (bolalar bog'chasidan boshlang'ich maktabgacha). - Voronej; NPO MODEK, 1998 yil.
2. Zimina A.N. Yosh bolalarni musiqiy tarbiyalash va rivojlantirish asoslari. - M.: Vldos, 2000 yil
3. Praslova G.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi. - SPb.: Bolalik matbuoti, 2005 yil.
4. O.P. Radinova va boshqa maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy ta'limi. - M.: Akademiya, 1998 yil.

Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi o‘rni

Odilova Gulbahor

Qo‘qon universiteti Andijon filiali Tarix yo‘nalishi, 25–04 guruh talabasi

Yunusova Buxajal Alimovna

Qo‘qon universiteti Andijon filiali Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom ilmlari tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi beqiyos hissasi yoritilgan. Imom al-Buxoriy tomonidan yaratilgan “Al-jome’ as-sahih” asari hadis ilmining eng ishonchli manbalaridan biri sifatida tan olingan. Maqolada Imom al-Buxoriyning hayoti, ilmiy faoliyati, hadislarni tanlashda qo‘llagan qat’iy mezonlari hamda hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ilmiy merosi nafaqat islom olamida, balki jahon ilm-fan taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga ega ekani asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida Imom al-Buxoriyning hadislarni rivoyat qilishdagi halollik, aniqlik va adolat tamoyillariga amal qilgani alohida ta’kidlanadi. Ushbu maqola Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Imom al-Buxoriy, hadis ilmi, muhaddis, sahih hadislar, islom ilmlari, Al-jome’ as-sahih, isnod, rivoyat.

Annotation: This article highlights the invaluable contribution of the great muhaddith Imam al-Bukhari, who holds a distinguished place in the history of Islamic sciences, to the development of hadith studies. The work *Al-Jami’ al-Sahih* compiled by Imam al-Bukhari is recognized as one of the most authentic and reliable sources in the science of hadith. The article analyzes Imam al-Bukhari’s life, his scholarly activities, the strict criteria he applied in the selection of hadiths, and his significant role in the advancement of hadith science. It is also substantiated that his scholarly legacy is of great importance not only in the Islamic world but also in the progress of global scholarship. During the research process, special emphasis is placed on Imam al-Bukhari’s adherence to the principles of honesty, accuracy, and justice in the narration of hadiths. This article serves to provide a deeper understanding of Imam al-Bukhari’s position and significance in the science of hadith.

Keywords: Imam al-Bukhari, hadith science, muhaddith, authentic hadiths, Islamic sciences, *Al-Jami’ al-Sahih*, isnad, narration.

Аннотация. В данной статье освещается бесценный вклад великого мухаддиса Имама аль-Бухари, занимающего особое место в истории исламских наук, в развитие науки хадисов. Труд Имама аль-Бухари «Аль-Джами’ ас-Сахих» признан одним из самых достоверных источников в хадисоведении. В статье анализируются жизнь Имама аль-Бухари, его научная деятельность, строгие критерии, применяемые им при отборе хадисов, а также его вклад в развитие науки хадисов. Также обосновывается, что его научное наследие имеет важное значение не только для исламского

мира, но и для развития мировой науки в целом. В ходе исследования особо подчёркивается приверженность Имама аль-Бухари принципам честности, точности и справедливости при передаче хадисов. Данная статья способствует более глубокому осмыслению места и значения Имама аль-Бухари в науке хадисов.

Ключевые слова: Имам аль-Бухари, наука хадисов, мухаддис, достоверные хадисы, исламские науки, «Аль-Джами' ас-Сахих», иснад, риваят.

Islom ilmlari taraqqiyotida hadis ilmi alohida o'rin tutadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va taqriirlarini o'rganish hamda ishonchli tarzda avlodlarga yetkazishda muhaddis olimlarning xizmati beqiyosdir. Ana shunday buyuk allomalardan biri — Imom al-Buxoriy bo'lib, u hadis ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. U yaratgan ilmiy metodologiya, xususan, hadislarni tanlash va baholashda qo'llagan qat'iy mezonlari hadis ilmini mustahkam va ishonchli fan darajasiga ko'tardi. Imom al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asari esa sahih hadislar to'plami sifatida islom olamida yuksak e'tirof etilgan. Shu bois Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish nafaqat diniy, balki ilmiy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Islom sivilizatsiyasi tarixida hadis ilmi Qur'oni karimdan keyingi eng muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi[1.136]. Hadislar Payg'ambar Muhammad sallallohu alayhi vasallamning so'zlari, amallari va tasdiqlarini o'z ichiga olgan bo'lib, musulmonlar hayotida diniy, axloqiy va huquqiy masalalarda asosiy manba vazifasini bajaradi[2.50]. Shu sababli hadislarni to'plash, tekshirish va ishonchli tarzda saqlab qolish islom tarixida muhim ilmiy vazifa bo'lib kelgan.

Hadis ilmining shakllanishi va rivojlanishida ko'plab buyuk allomalar faoliyat olib borgan. Ana shunday ulug' muhaddislardan biri Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hisoblanadi. U o'zining chuqur bilimi, yuksak ilmiy salohiyati va halolligi bilan hadis ilmini yangi bosqichga olib chiqqan. Imom al-Buxoriy hadislarni tanlashda juda qat'iy mezonlarga amal qilgan va faqatgina ishonchli roviylardan kelgan hadislarni o'z asariga kiritgan.

Imom al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asari hadis ilmidagi eng mukammal va ishonchli to'plamlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asar nafaqat diniy manba, balki tarixiy, axloqiy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bebaho meros hisoblanadi. Uning hadis ilmidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, yosh avlodni ilmga, halollikka va adolatga chorlaydi.

Imom al-Buxoriy hadis ilmi taraqqiyotida beqiyos o'rin egallagan buyuk allomalardan biridir. U hijriy 194-yilda Buxoro shahrida tavallud topgan bo'lib, yoshligidan ilmga bo'lgan qiziqishi va zukkoligi bilan ajralib turgan. Otasi Ismoil ibn Ibrohim ham ilm ahli bo'lib, halol va taqvodor inson sifatida tanilgan. Bu holat Imom al-Buxoriyning ilmiy va axloqiy shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Imom al-Buxoriy hadis ilmiga juda erta kirib kelgan. U yoshligidan hadislarni yod olish, roviylar haqida ma'lumot to'plash va isnodlarni tahlil qilish bilan shug'ullangan. O'n yoshidayoq hadis ilmidagi ayrim xatolarni to'g'rilay olgani uning ilmiy salohiyati

naqadar yuqori bo'lganini ko'rsatadi. U ilm talabida Makka, Madina, Basra, Kufa, Bag'dod, Misr kabi ilm markazlariga sayohat qilgan va minglab olimlardan ta'lim olgan. Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi eng katta xizmati — sahih hadislarini tanlab, ularni alohida to'plamga jamlaganidir. U hadislarini qabul qilishda nihoyatda qat'iy mezonlarga amal qilgan. Har bir hadisning roviylari adolatli, xotirasi kuchli va bir-biri bilan uchrashgan bo'lishi shart deb hisoblangan. Shuningdek, hadis matnining Qur'on va islom aqidalariga zid bo'lmasligi ham muhim mezonlardan biri bo'lgan.

Imom al-Buxoriyning eng mashhur asari "Al-jome' as-sahih" bo'lib, bu kitob hadis ilmidagi eng ishonchli manba sifatida tan olingan. Ushbu asarda olti yuz mingdan ortiq hadis ichidan tanlab olingan yetti mingdan ziyod sahih hadis jamlangan. Bu asar nafaqat hadislar to'plami, balki fiqhiy, axloqiy va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega [3.83].

Imom al-Buxoriy hadislarini mavzularga ajratib, ularni tartibli ravishda joylashtirgan. Har bir bobga mos oyat yoki hadis keltirilishi uning chuqur fiqhiy bilimiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shu jihatdan "Al-jome' as-sahih" nafaqat muhaddislar, balki faqihlar uchun ham muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi o'rni uning shogirdlari va izdoshlari faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Uning ilmiy maktabi keyingi muhaddislar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Imom Muslim, Imom Termiziy kabi mashhur olimlar Imom al-Buxoriydan ta'lim olgan yoki uning ilmiy metodidan ilhomlangan.

Shuningdek, Imom al-Buxoriy ilmiy faoliyat bilan birga yuksak axloq sohibi bo'lgan. U kamtarinlik, halollik va adolatni hayotining asosiy tamoyili deb bilgan. Ilmni dunyoviy manfaatlar uchun emas, balki haqiqatni aniqlash va ummatga foyda keltirish uchun xizmat qildirishni maqsad qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Imom al-Buxoriy hadis ilmi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. Uning ilmiy faoliyati hadislarini to'plash, tekshirish va ishonchli manbalar asosida tartibga solish borasida yangi bosqichni boshlab bergan. Imom al-Buxoriyning qat'iy ilmiy mezonlari hadis ilmining mustahkam poydevorini yaratgan va keyingi avlod olimlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

"Al-jome' as-sahih" asari islom olamida Qur'oni karimdan keyingi eng ishonchli manba sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asar nafaqat diniy hukmlar, balki axloqiy va tarbiyaviy masalalarda ham muhim ahamiyatga ega. Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xullas, Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi o'rni beqiyos bo'lib, uning ilmiy yondashuvi, halolligi va fidoyiligi yosh avlod uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Uning merosini o'rganish nafaqat tarixiy, balki ma'naviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov S. Islom tarixi. – Toshkent: Universitet, 2021.
2. Karimov U. Hadis ilmi tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Mirzayev B. Imom al-Buxoriy va uning ilmiy merosi. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. Rasulov A. Islom ilmlari asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Yo'ldoshev M. Hadis va sunnat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. Qodirov N. Buyuk muhaddislar hayoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

Bolalarda sensor buzilishlarni erta aniqlash va bartaraf etish strategiyalari.

Zokirova Fozilaxon Zafarjon qizi

Qo‘qon universiteti “Maxsus pedagogika” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: zokirovafozila307@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda sensor buzilishlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilinadi. Sensor buzilishlar – ko‘rish, eshitish, nutq va boshqalar. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar asosida erta diagnostika va korreksion yordam ko‘rsatish davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalish sifatida ta’kidlangan. Shuningdek, maktabgacha ta’limda sensor tarbiyaning ahamiyati, individual reabilitatsiya dasturlari, shuningdek, Jahon va O‘zbek olimlarining sensor integratsiyasi bo‘yicha tadqiqotlari taxlil qilingan. Maqola bolalarning rivojlanishida sensor integratsiyasi muhimligini, erta aniqlash va maxsus yondashuvlar yordamida ularning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlarini ta’minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar. Sensor integratsiyasi, bolalar salomatligi, reabilitatsiya, korreksion yordam, nutq buzilishlari, ko‘rish buzilishlari, eshitish buzilishlari, individual yondashuv

Bugungi kunga kelib bolalarda juda ham ko‘p uchrayotgan sensor buzilishlar jahon miqyosida ijtimoiy-pedagogik muammolar sirasidan joy oldi. Jahon sog‘liqni saqlash ma’lumotlariga ko‘ra har 10 nafar bolaning bittasida sensor buzilishlarning turli xil ko‘rinishlari uchramoqda. Ko‘rish, eshitish, nutqiy buzilishlar yoki boshqa sezgi tizimlarida muammolar kuzatilmoqda. Bu esa bolalarning kognitiv jarayonlarida, ijtimoiy rivojlanishida sezilarli kechikishlarga olib kelmoqda. Shunday sharoitda bolani erta diagnostika qilish, samarali korreksion yordam ko‘rsatishni yuqori qo‘yish masalasi eng dolzarb muammolar sirasidan joy oldi.

Sog‘liqni saqlash va ta’lim sohasida bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda ularni erta diagnostika qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deb qaraldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-216-son qaroridagi

“Aholi salomatligini mustahkamlash, kasalliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.” deb ta’kidlangan. Ushbu qaror bolalarda sensor buzilishlarni erta diagnostika qilish muammosi ham aynan milliy darajada ustuvor vazifa ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-noyabrdagi PF-246-son farmonida bolalar salomatligi ustuvor vazifa sifatida qaraldi. “Tibbiyot tizimida bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularni erta skriningdan o‘tkazish hamda sog‘lom avlodni shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.” deb ta’kidlangan. Bu farmon bevosita sensor buzilishlarni erta aniqlash va bartaraf etish strategiyalari uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2022–2026-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat dasturida ham erta skrining, pediatriya xizmatini modernizatsiya qilish va maxsus diagnostika markazlarini tashkil etish vazifalari aniq belgilangan.

“Demak, bolalarda sensor buzilishlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bu yo‘nalish mamlakatimiz ijtimoiy-pedagogik siyosatining ajralmas qismidir.”

Jean Ayres – Sensor integratsiyasi va uning rivojlanishdagi rolini tadqiq etgan mashhur olimlardan biridir. Ayres o‘zining **Sensor Integration Theory (SIT)** da, bolalarda sensor tizimlarning uyg‘un ishlashining muhimligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, **sensor integratsiyasi** bolaning umumiy rivojlanishida va o‘qish, ijtimoiy moslashuvda katta ahamiyatga ega. Ayres sensor buzilishlarga ega bolalar uchun maxsus terapiya dasturlarini ishlab chiqqan, bunda **logopedik va ergoterapevtik yordamlar** asosiy o‘rin tutadi. U sensor tizimlarning bir-biriga moslashishi va ular orasidagi uyg‘unlik bolaning kognitiv va motor rivojlanishiga ta’sir qilishini ko‘rsatgan. **Ayres** ta’kidlashicha, sensor tizimlarining uyg‘un ishlashi bolalarning maktabdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, sensor integratsiyasi qiyinchiliklariga duch kelgan bolalar ko‘pincha o‘qish, yozish, matematik va ijtimoiy ko‘nikmalarda qiyinchiliklarga uchraydilar. [Jean Ayres. 1972)].

Schaaf va Lane 2– Sensor integratsiyasi va tizimlararo muvofiqlik masalalarini ko‘rib chiqib, bolalar uchun sensor terapiyaning afzalliklarini tadqiq etgan olimlar. **Schaaf va Lane** ning fikriga ko‘ra, **sensor buzilishlar** bolalar uchun psixologik, fiziologik va ijtimoiy qiyinchiliklarga olib keladi. Ularning ishida, sensor integratsiyasi **bolalar uchun keyingi rivojlanishning** asosiy omili sifatida e’tirof etilgan. Ular, sensor buzilishlar bilan bog‘liq muammolarni **tez aniqlash** va **maxsus yondashuvlar** bilan davolash orqali bolalarning ijtimoiy va akademik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash mumkinligini ko‘rsatgan. [Schaaf va boshq. 2015].

Gulchehra Xamidovaning olib borgan tadqiqotiga ko‘ra Maktabgacha ta’limda bolalarni sensor tarbiyasi ularning dunyoni idrok etish qobiliyatini shakllantirishdagi izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sensor tarbiya usullari bolalarda sezgi organlarining faoliyatini rivojlantiradi, bu esa bolalarning o‘rganish va ijtimoiylashish jarayonlariga yordam beradi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida sensor tarbiya metodlari keng joriy etilishi kerak. [Gulchehra Xamidova. 2022].

Shuhrat Turg‘unov va Akmal Abduvaxidov o‘z tadqiqotlarida sensor, tayanch-harakat, intellekt va nutq buzilishlari birga bo‘lgan bolalar uchun individual yondashuv va kompleks rehabilitatsiya zarurligi haqida to‘xtalib o‘tgan. Bunday bolalarning ijtimoiy va ta’lim muhitiga moslashuvini ta’minlash uchun logopediya, maxsus pedagogika, sensor terapiya va rehabilitatsiya xizmatlari birgalikda amalga oshirilishi muhimligi ta’kidlangan. [Turg‘unov Sh., Abduvaxidov A.2021].

Yuqoridagi olimlarning fikrini o'rganib, ularni taxlil qilgan holda sensor buzilishlarni erta aniqlash va bartaraf etish uchun quyidagi strategiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy asoslangan skrining tizimini yo'lga qo'yish

Sensor buzilishlarni erta aniqlashning eng samarali usullaridan biri bu **skrining dasturlarini** joriy qilishdir. Bunda har bir bolaning individual sezgi tizimlari faoliyatini muntazam monitoring qilish orqali mavjud muammolarni erta bosqichda aniqlash imkoniyati yaratiladi. Tavsiya etiladigan mexanizmlar:

Har yarim yilda bir marta bolalarni audiologik (eshitish), oftalmologik (ko'rish) va logopedik (nutq) yo'nalishlar bo'yicha chuqurlashtirilgan tekshiruvlardan o'tkazish; Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida **sog'lomlashtiruvchi skrining jadvallarini** tuzish va har bir bolaning psixofiziologik rivojlanish holatini monitoring qilish;

Tekshiruv natijalariga asosan **individual rivojlanish xaritalari** tuzish. Bu yondashuv xalqaro tajribada ham o'z samaradorligini ko'rsatgan bo'lib, xususan, Ayres va Schaaf va boshqalar tadqiqotlarida **sensor integratsiya buzilishlarini erta davolash ularning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatini oshirishini** ta'kidlaganlar. [Ayres va boshq.].

2. Pedagog va ota-onalarni o'qitish orqali erta kasallikni aniqlashni kuchaytirish

Sensor buzilishlarni erta bosqichda aniqlash faqat tibbiy xodimlar emas, balki bolaning kundalik rivojlanish jarayonida ishtirok etayotgan shaxslar — pedagog va ota-onalarning ham faolligini talab qiladi:

Pedagoglar uchun maxsus treninglar tashkil etish, unda sensor buzilishlarning dastlabki alomatlarini aniqlash, kuzatish va hujjatlashtirish bo'yicha ko'nikmalar shakllantiriladi;

Ota-onalar uchun metodik qo'llanmalar, vizual yo'riqnomalar va seminarlar orqali uy sharoitida kuzatish, bola xatti-harakatidagi normativdan og'ishlarni aniqlash bo'yicha bilimlar beriladi;

Pedagoglar va ota-onalarning uzviy hamkorligi orqali bolaning har tomonlama tahlili va o'z vaqtida yo'naltirilishi ta'minlanadi. Bunday yondashuv **inklyuziv ta'lim tizimi** asoslaridan biri bo'lib, bola salomatligini muhofaza qilishda oilaviy va pedagogik muhitning integratsiyasini ta'minlaydi.

3. Tibbiy-psixologik-pedagogik konsiliumlarni tashkil etish

Sensor buzilishlarga ega bolalarni aniqlash va ularni reabilitatsiya qilishda **multidisiplinar yondashuv** hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu borada quyidagilar amalga oshirilishi lozim.

Har bir bolaga nisbatan **shifokor (pediatr, audiolog, nevropatolog), psixolog, logoped va maxsus pedagog** ishtirokida holatni chuqur baholash va maslahat berish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Konsilium asosida bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda **individual rivojlantiruvchi dastur (IRD)** ishlab chiqiladi. Dastur doirasida logopedik

mashg'ulotlar, ergoterapiya, sensor terapiya, psixologik yordam, shuningdek oilaviy maslahatlar uzviy ravishda olib boriladi.

Bugungi kunda bolalardagi sensor buzilishlarni erta aniqlash va bartaraf etish masalalari nafaqat tibbiyot, balki ijtimoiy-pedagogik sohaga ham oid muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Izlanishlarda keltirilgan takliflar asosida sensor buzilishlarni erta aniqlash va davolash jarayonlarida ilmiy asoslangan skrining tizimlaridan foydalanish, pedagog va ota-onalarni o'qitish hamda tibbiy-psixologik-pedagogik konsiliumlarni tashkil etish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligi ta'kidlangan. Shuningdek, sensor buzilishlarga ega bolalar uchun individual yondashuv va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish zarurati, ular orqali bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkinligi ko'rsatilgan. Ushbu takliflar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlar va farmonlarga mos ravishda, sensor buzilishlarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish borasida amaliy ishlarni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada, bolalarning sifatli hayot kechirishlari va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-216-son qarori, 2022; PF-246-son farmoni, 2022
2. Ayres, Jean. Sensory Integration and the Child. Western Psychological Services, 1972.
3. Schaaf, Roseann C va Amy J. Lane. "Toward a best practice model for sensory integration intervention." American Journal of Occupational Therapy, vol. 69, no. 5, 2015, pp. 1–10.
4. Maktabgacha ta'limda bolalarni sensor tarbiyasi vazifalari. Pedagogika va Psixologiya jurnali, 2022-yil.
5. Turg'unov Sh., Abduvaxidov A. (2021). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda integrativ yondashuvlar. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 78-bet
6. Xamidova G. (2022). Maktabgacha ta'limda sensor tarbiyaning o'rni. Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti. 45-bet.



Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etish va ularning ahamiyati

Jamoldinova Oista Bobir qizi

University of Economics and Pedagogiy NOTM "Boshlang'ich
ta'lim" yonalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar darslarini samarali tashkil etishda amaliy ishlarning tutgan o'rni hamda ularning pedagogik va psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va bilish xususiyatlari inobatga olinib, amaliy ishlar orqali bilimlarni ongli o'zlashtirish, mustahkamlash va real hayot bilan bog'lash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Maqolada tabiiy fanlar darslarida qo'llaniladigan amaliy ishlarning turlari, ularni tashkil etish metodikasi hamda mazkur jarayon orqali o'quvchilarning qiziqishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari asoslab berilgan.

Shuningdek, amaliy ishlarning o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tajriba o'tkazish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ochib berilib, ushbu faoliyatning boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari amaliy ishlarni tizimli va maqsadli tashkil etish tabiiy fanlarni o'qitishda yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, amaliy ishlar, tajriba, kuzatuv, o'quvchi qobiliyati, ta'lim samaradorligi

Аннотация. В данной статье научно раскрывается роль практических работ в эффективной организации уроков естественных наук в начальном образовании, а также их педагогическое и психологическое значение. В ходе исследования с учётом возрастных и познавательных особенностей учащихся начальных классов проанализированы возможности осознанного усвоения, закрепления знаний и их связи с реальной жизнью посредством практической деятельности.

В статье рассматриваются виды практических работ, применяемых на уроках естественных наук, методика их организации, а также обосновываются пути выявления и развития интереса, самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся в процессе выполнения практических заданий.

Кроме того, раскрывается роль практических работ в формировании у обучающихся навыков наблюдения, проведения опытов, анализа и умения делать выводы, а также подчёркивается значение данной деятельности в повышении качества начального образования. Результаты исследования показывают, что системная и целенаправленная организация практических работ обеспечивает высокую педагогическую эффективность в преподавании естественных наук.

Ключевые слова: начальное образование, естественные науки, практические работы, эксперимент, наблюдение, способности учащихся, эффективность обучения.

Abstract. This article scientifically examines the role of practical activities in the effective organization of natural science lessons in primary education, as well as their pedagogical and psychological significance. Taking into account the age and cognitive characteristics of primary school students, the study analyzes the possibilities of conscious knowledge acquisition, reinforcement, and integration with real-life situations through practical work.

The article describes the types of practical activities used in natural science lessons, the methodology of their organization, and substantiates ways to identify and develop students' interest, independent thinking, and creative abilities through practical learning processes.

In addition, the role of practical activities in developing students' observation skills, experimentation, analytical thinking, and ability to draw conclusions is revealed. The significance of this activity in improving the quality of primary education is also highlighted. The research results indicate that the systematic and purposeful organization of practical work ensures high pedagogical effectiveness in teaching natural sciences.

Keywords: primary education, natural sciences, practical activities, experiment, observation, student abilities, educational effectiveness.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bosqichida tabiiy fanlarni o'qitish o'quvchilarda tabiat hodisalariga nisbatan qiziqish uyg'otish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va amaliy hayotga zarur bo'lgan bilimlarni berishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda faqat nazariy tushuntirishlar bilan cheklanib qolish kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli dars jarayonida amaliy ishlarni tashkil etish dolzarb pedagogik masala hisoblanadi.

Amaliy ishlar o'quvchining bilimni bevosita faoliyat jarayonida egallashiga imkon yaratib, uning bilish jarayonini faollashtiradi.

Tabiiy fanlar darsida amaliy ishlarning mohiyati

Amaliy ishlar — bu o'quvchilarning bevosita kuzatish, tajriba o'tkazish, solishtirish va xulosa chiqarish orqali bilimlarni o'zlashtirishiga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda bunday ishlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, sodda va xavfsiz bo'lishi lozim.

Amaliy ishlar orqali o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki o'z tajribasi asosida egallaydi. Bu esa bilimning mustahkam va uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi.

Tabiiy fanlar darsida bajariladigan amaliy ishlar turlari

Boshlang'ich ta'limda quyidagi amaliy ishlar samarali hisoblanadi:

Kuzatuv ishlari — ob-havo holatini kuzatish, o'simliklarning o'sishini kuzatish;

Oddiy tajribalar — suvning bug‘lanishi, muzning erishi, tuproq va suv xususiyatlarini aniqlash;

Amaliy mashg‘ulotlar — urug‘ ekish, o‘simlik parvarishi, tabiat burchagida ishlash;

Taqqoslash va guruhlash — jonli va jonsiz tabiat obyektlarini ajratish;

O‘yin asosidagi amaliy ishlar — rolli o‘yinlar, tabiatga oid didaktik o‘yinlar;

Loyihaviy ishlar — kichik guruhlarda tabiatga oid mini-loyihalar bajarish.

Amaliy ishlar orqali o‘quvchi qobiliyatlarini aniqlash

Amaliy ishlar jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning turli qobiliyatlarini aniqlashi mumkin. Jumladan:

Kuzatuvchanlik qobiliyati — hodisalardagi o‘zgarishlarni payqay olish;

Mantiqiy fikrlash — sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish;

Ijodiy qobiliyat — noodatiy yechimlar taklif qilish;

Amaliy ko‘nikmalar — topshiriqlarni mustaqil bajarish;

Muloqot va hamkorlik — guruhda ishlash malakasi.

O‘qituvchi ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini aniqlashi mumkin.

O‘quvchi qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari

Amaliy ishlar orqali o‘quvchi qobiliyatlarini rivojlantirish uchun:

o‘quvchiga mustaqil harakat qilish imkonini berish;

savol-javob va muammoli vaziyatlardan foydalanish;

guruhli va juftlikda ishlashni yo‘lga qo‘yish;

natijani baholashda jarayonga e‘tibor qaratish;

rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy ishlarining ta‘lim jarayonidagi ahamiyati

Amaliy ishlar:

o‘quvchilarda tabiiy fanlarga qiziqishni oshiradi;

nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘laydi;

mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

bilimlarning ongli va mustahkam o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi;

o‘quvchining shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘limda tabiiy fanlar darsida amaliy ishlarni tashkil etish ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Amaliy ishlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga keng imkoniyat yaratadi.

Tabiiy fanlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘un holda o‘qitish orqali o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabat, kuzatuvchanlik va ilmiy fikrlash asoslari shakllanadi. Shu bois amaliy ishlarni tizimli, maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish boshlang‘ich ta‘limning sifatini oshirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

Komenskiy Ya.A. Didactica Magna. — Pedagogik meros.

Ushinskiy K.D. Inson tarbiya predmeti sifatida. — Moskva.

Abdullaeva M. Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi. — Toshkent: O‘qituvchi.

Sayidahmedov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent.

Boshlang‘ich ta‘limda tabiiy fanlar metodikasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar.



TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	OILADAGI MA'NAVIY MUHIT VA UNING BOLA PSIXOLOGIK TARBIYASIGA TA'SIRI. Jo'rakulova Dildora Ziyodullayevna, Ismoilov Turg'un	3
2.	The Gothic Novel: Origins and Influence on English Literature Isroilova Tursuntosh Kamilberdiyeva Barnoxon Xusniddin qizi	6
3.	Sentimentalism in the 18th Century: Samuel Richardson and Laurence Sterne Isroilova Tursuntosh Kamilberdiyeva Barnoxon Xusniddin qizi	9
4.	Qurilish kompaniyasida menejment tizimini takomillashtirish Madalievva Saodatxon Kadirjanovna	12
5.	400 metr g'ovlar osha yuguruvchilarni, ishlab chiqilgan tezkor chidamlilikni rivojlantirish metodikasini qo'llanilgandan so'ng jismoniy tayyorgarligini shakllanishi Satkulov Bekzod Mavlyanovich	16
6.	Zamonaviy buxgalteriya dasturlarida ish haqi hisobini yuritishning afzalliklari Nasriddinova Ravshanoy g'ayratjon qizi	21
7.	An'anaviy Sharq pedagogikasida o'quvchilarning intellektual salohiyatini aniqlash yondashuvlari Nazarov Sulaymon Mannonovich	23
8.	Tarixiy shaharlarda aqlli shahar konsepsiyasini joriy etishning dolzarbligi va amaliy yechimlari Shohsanam Hoshimova Avazjon qizi	26
9.	Oiladagi kelishmovchiliklar va ajirimlar farzandlarning ruxiy holatiga ta'siri O'rinboyeva Zarina	28
10.	Case system vs. Prepositional system: russian and uzbek compared to english Kulmurodova Sadokat	32
11.	Futbol sport turiga bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi Abdurahmonova Anorahon Ikromjon qizi	36
12.	Gemorragik va ishemik insult bilan og'rikan bemorlarni davolash va parvarish qilish Isaboyev Bahodir, Vahabova Dilnoza	41

13.	The role of critical thinking in primary school students Khursanova Z.M., Karim-akhunova Rayona	45
14.	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini lingvokognitiv tahlilga o'rgatish metodikasi Kozimova Sadoqat	48
15.	Developing historical competencies in students based on the contributions of eastern scholars to scientific progress Bobonorov Khusan Tolibjonovich	51
16.	Innovative methodological foundations for developing digital competencies in engineering education Nurov Utkir Khudoyberdievich	54
17.	Reabilitatsiya va kundalik hayot uchun mo'ljallangan adaptiv kiyimlarning konstruktiv yechimlari Fozilova Muhlisaxon Shukrullo qizi Xomidov Vohidjon Obidovich	57
18.	Bolalarda nutq kamchiliklari: turlari, komponentlari va erta aniqlashning ahamiyati Tursunboyeva Omina Xasanboy Qizi	62
19.	The importance of learning english in the modern world Jaloldinov Islomiddin Shamsitdin o'g'li Raxmadjonov Bakhodirjon Umidjon o'g'li	66
20.	Etiology, pathogenesis, and clinical characteristics of acute respiratory viral infections in children Muhammadjonova Bahoroy Otabek qizi	68
21.	Методологические основы оценки учебной активности студентов и организации рефлексии в виртуальном образовательном сообществе Содикова О.	75
22.	O'ZBEK MAQOM IJROCHILIGIDA "USHSHOQ" NAMUNALARINING TALQIN VARIANTLARI VA USLUBIY RANG-BARANGLIGI Axmedova Muxlisa Alijon qizi	79
23.	<i>Household Monthly Incomes – Quality of Life Behind the Numbers</i> Rozimurodova Dilroz Ravshan qizi	83
24.	THE STATE OF COTTON GROWING AND THE IRRIGATION SYSTEM IN THE UZBEK SSR IN THE 1960s–1970s Aslonov Islombek Soyibjon o'g'li	87
25.	Odamda parazitlik qiluvchi sodda hayvonlar Odilova Nilufar Sodikjon kizi	89

26.	MUSIQAVIY SENSOR QOBILIYATINI ANIQLASH USSULARI Nazarova Marjona	93
27.	Imom al-Buxoriyning hadis ilmidagi o‘rni Odilova Gulbahor, Yunusova Buxajal Alimovna	98
28.	Bolalarda sensor buzilishlarni erta aniqlash va bartaraf etish strategiyalari. Zokirova Fozilaxon Zafarjon qizi	101
29.	Boshlang‘ich ta‘lim tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etish va ularning ahamiyati Jamoldinova Oista Bobir qizi	105

